2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 48 (1109), 2024-yil 7-mart, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

TOSHKENT VILOYATI TUMAN VA SHAHARLARIDAGI “O‘SISH NUQTALARI” TAHLIL QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-mart kuni Toshkent viloyatining tuman va shaharlaridagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Toshkent viloyatida 15 ta tuman va 7 ta shahar bor. Hudud qulay geografik makonda, voha va vodiy viloyatlarini poytaxtimiz bilan bog‘laydigan muhim transport yo‘lagida joylashgan.

Lekin viloyatning iqtisodiy rivoji mavjud salohiyatga umuman mos emas. Na savdo, na yer-suv, na transport-tranzit imkoniyatlaridan to‘la foydalanilyapti. Ba’zi ko‘rsatkichlar bunday qulayliklar bo‘lmagan ayrim chekka hududlardagidan ham past.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda ishga solinmayotgan imkoniyatlar, bu boradagi sustkashliklar ko‘rsatib o‘tildi.

Poytaxtimiz jadal rivojlanayotgani holda uning yonidagi viloyat hududlari bu sur’atdan ortda qolmoqda. Masalan, Toshkent, Zangiota, Qibray, Yuqori Chirchiq, O‘rta Chirchiq tumanlarida sanoat hajmi yondosh poytaxt tumanlariga nisbatan bir necha barobar kam. Qurilish sohasida ham shu ahvol.

Bir qator kichik tadbirkorlar faoliyatini to‘xtatgan. 29 ta yirik korxonada hamda Bekobod va Yangiyo‘l shaharlarida ishlab chiqarish kamaygan. Viloyatda ekin yerlari ko‘p bo‘la turib, Andijon bilan deyarli bir xil hajmda mahsulot yetishtirilgan.

Hududlarning bor salohiyati daromadga aylanmayapti. Sababi “o‘sish nuqtalari”ni topish va ishga solish bo‘yicha hokimlarda tashabbus yetishmayapti. Ayrim hokimlar hatto o‘z hududida “pastga tushmagan”, tadbirkorni qo‘llab-quvvatlash, ish o‘rinlarini ko‘paytirishga harakat qilmagan.

Yig‘ilishda viloyatdagi shahar va tumanlar mutasaddilari o‘z faoliyatida o‘zgarish qilmasa, lavozimiga loyiqligi ko‘rib chiqilishi to‘g‘risida ogohlantirildi.

Davlatimiz tomonidan ular uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Lekin hamma tumanlarda ham rivojlanish bir xil emas. Xususan, Parkent, Yangiyo‘l, Chinoz va Oqqo‘rg‘on tumanlarida turizm, tranzit va iqtisodiy qulayliklar ko‘p bo‘lsa-da, taraqqiyotdan orqada. Shu bois, Prezident topshirig‘iga muvofiq, ulardagi haqiqiy holat, imkoniyatlar va tadbirkorlarning takliflari o‘rganildi.

Yig‘ilishda shu boradagi tahlillar, mazkur tumanlarning “o‘sish nuqtalari” taqdimot qilindi.

Jumladan, Parkent tumanining xushmanzara joylariga olib boruvchi yo‘llarni ta’mirlash, mikroavtobuslar qatnovini tashkil etish, yo‘l bo‘yida savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari qurish uchun tadbirkorlarga yer ajratish taklif etilmoqda. Parkentsoy, Qizilsoy va Chovlisoyning muhofaza hududini aniq belgilash va qirg‘oqlarini mustahkamlash orqali bo‘shaydigan yerlardan samarali foydalanish ham mumkin.

Yangiyo‘l tumanida “loyiha qilaman, investitsiya olib kelaman”, degan tadbirkorlar juda ko‘p. Lekin loyihalar uchun yer topish muammo. Shu bois, hozirda bo‘sh turgan inshootda oziq-ovqat va gigiyena mahsulotlariga ixtisoslashgan kichik sanoat zonasi tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Chinoz tumanida savdo-ko‘ngilochar majmua va zamonaviy baliq bozori barpo etish, yo‘l bo‘yida savdo va xizmatlarni kengaytirish, xonadonlarda issiqxonalarni ko‘paytirish kabi imkoniyatlar hisob-kitob qilingan.

Oqqo‘rg‘onda sanoat rivojlanmagani sababli ko‘plab xotin-qizlar Toshkent shahri va boshqa tumanlarga qatnab, to‘qimachilik korxonalarida ishlamoqda. Shunday korxonalarni tumandagi bo‘sh binolar o‘rnida tashkil qilish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari tumanlar iqtisodiyotini sog‘lomlashtirish bo‘yicha choralarni ko‘rsatib o‘tdi. Mutasaddilarga viloyatning barcha hududlarini shunday tahlil qilib, qo‘shimcha “o‘sish nuqtalari”ni aniqlash, daromad manbalarini ko‘paytirish vazifasi qo‘yildi.

Bu borada bir qator rejalar ham bor. Xususan, Ohangaron tumanida O‘zbekiston — Vengriya sanoat zonasi tashkil etilib, 100 million dollarlik loyihalar joylashtiriladi. Angren erkin iqtisodiy zonasida maishiy texnika, metall prokat, meva-sabzavotni qayta ishlash bo‘yicha 400 million dollarlik, “Eltex industrial” texnoparkida 260 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi.

Yig‘ilishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilib, iqtisodiy-ijtimoiy loyihalarni jadallashtirish masalalari ko‘rib chiqildi. Poytaxtdagi sanoat korxonalarini bosqichma-bosqich shahardan tashqariga ko‘chirish rejalashtirilgani, bu Toshkent viloyati uchun katta imkoniyat ekani ta’kidlandi.

O‘zini o‘zi band qilgan insonlarning kichik biznesga o‘tishi, faoliyatini to‘xtatgan tadbirkorlarning ishini yana tiklashiga ko‘maklashiladi. Tomorqalarda Chinoz tajribasi bo‘yicha ixcham issiqxonalar, kooperatsiya asosida mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash majmualari tashkil etiladi.

Shuningdek, joriy yilda mahalliy va xorijiy turistlar sonini 5 millionga, turizmda eksportni kamida 300 million dollarga yetkazish choralari bo‘yicha fikr almashildi.

Xotin-qizlar va yoshlarni kasbga o‘qitish hamda bandligini ta’minlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

O‘zA

“O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARINI AMALGA OSHIRISH DOIRASIDAGI ISHLARNING BORISHI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-mart kuni iqtisodiy rivojlanish, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha maslahatchi Suma Chakrabarti bilan uchrashuv o‘tkazdi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining borishi va uni joriy yilda amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturining ijrosi ko‘rib chiqildi. O‘zbekistonning JSTga kirish bo‘yicha muzokaralar jarayoni doirasidagi ishlarni faollashtirish, jumladan, milliy normativ-huquqiy hujjatlarni tashkilot talablariga uyg‘unlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Ichimlik suv ta’minoti, maktablar infratuzilmasini yaxshilash, onkologik kasalliklarning oldini olish, davlat xizmatida sifatni oshirish va raqobatni ta’minlash borasidagi loyihalar bo‘yicha aniq amaliy choralarni davom ettirish zarurligi ta’kidlandi.

Uchrashuvda O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, jumladan, investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish masalasiga e’tibor qaratildi. Shu ma’noda, maslahatchi ilg‘or xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda tijorat nizolarini hal qilishning aniq mexanizmlarini taklif etdi.

O‘zA

Biz va dunyo

JAHON TURIZM SANOATIDA MUHIM VOQELIK

XORIJIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA EKSPERTLAR “2027-YIL — XALQARO BARQAROR VA YASHOVCHAN TURIZM YILI” REZOLYUTSIYASI HAQIDA

Davomi 2-betda

8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni

AYOLLARI BAXTLI YURTNING YO‘LI YORUG‘, ISTIQBOLI CHAROG‘ONDIR

Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish mamlakatimizdagi islohotlarning bosh maqsadi. Jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani esa xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat va g‘amxo‘rlik bilan belgilanadi. Shu bois, xotin-qizlarning huquq va manfaatini ta’minlash, o‘qishi, ishlashi, salomatligi, oilasi uchun sharoitlar yaratish masalasi taraqqiyot yo‘lini ko‘zlagan har bir davlat siyosatida ustuvor o‘rin egallaydi.

Bunday ezgu maqsad rivojlanishning yuksak marralarini ko‘zlab ilgarilab borayotgan yangi O‘zbekiston siyosatining ham ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Keyingi yillarda huquqiy-tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan muhim chora-tadbirlar bunga misol bo‘la oladi. Xususan, so‘nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu jabhadagi ishlar ko‘lamini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Davomi 3-betda

Iftixor

GULLAR VODIYSIDA UMIDLAR O‘SAR

Kishi tug‘ilib o‘sgan vatani, xalqi uchun xizmat qilishi shart. Bu uning farzandlik farzi hisoblanadi. Shu bois, xizmati uchun inson biron manfaat kutmaydi. Halol mehnat bilan oila tebratib, el-yurt oldida yuzi yorug‘ bo‘lsa, yetarli deb hisoblaydi.

Inson qadri hamma narsadan ustun bo‘lgan mamlakatlarda fuqarolarning ana shu oddiy mehnati ham yuksak qadr topadi. O‘rni kelganda rag‘batlantiriladi.

Prezidentimiz farmoni bilan “Mehnat shuhrati” ordenini olganim haqidagi xabarni eshitganimda quvonchdan ko‘nglim yorishdi. Quvonch va hayajon aralash ajib bir tuyg‘uni his etdim... Bu hayajon va quvonchni so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi.

Shu bilan birga, oltmish yillik mehnat faoliyatim ko‘z oldimdan o‘tdi. O‘tgan yarim asrdan ziyod vaqt ichida men tug‘ilib o‘sgan diyor, qadim va navqiron To‘rtko‘l, Qoraqalpog‘iston xalqi quvonchli damlar bilan birga sinovlarni ham boshidan o‘tkazdi. Bilasizmi, To‘rtko‘l to‘rt tomoni ko‘l degan ma’noni beradi. Bir paytlar daryo toshgani bois, qadimgi to‘rtko‘lliklar bir oz yuqoriga ko‘chishga majbur bo‘lgan. Keyinchalik Orol muammosi boshlandi. Suv tanqis bo‘ldi. To‘rtko‘l cho‘lga aylandi. Xalqimiz hayotsevarligi bois, o‘sha paytlarda tumanimizni cho‘l emas, To‘rtgul deb atar edi. Ko‘pning duosi ko‘l degani shu bo‘lsa kerak, bugun Ustyurt kengliklari rostdan ham gullayapti. Orol dengizining qurigan joylari o‘rnida xalqimizning orzulariday nihollar ko‘klay boshladi. Shu haqida o‘ylaganimda vatan madhi uchun yozgan she’rim yodimga tushadi:

“Gullar vodiysida umidlar o‘sar,
Uylarning to‘rini beshiklar bezar,
Oq tonglarni kutib shamollar esar,
Onalari suyuk O‘zbekistonim,
Kelajagi buyuk O‘zbekistonim!”

Darhaqiqat, bir paytlar suvi chekingan Orol o‘rnida bugun umid o‘smoqda. U yaqin yillarda kattagina o‘rmon bo‘lib bo‘y ko‘rsatadi.

Davomi 2-betda

Ta’lim odimlari

VATAN TARAQQIYOTI YETUK VA BILIMLI YOSHLAR QO‘LIDA

Biz yashab turgan zamindan dunyo ilm-fani tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan ulug‘ allomalar ko‘p yetishgan. Beruniy, Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Ahmad Farg‘oniy kabi bobolarimizning aql-zakovati va buyuk kashfiyotlari dunyo ahlini hanuz hayratga solib kelmoqda. Ilm-fan sohasidagi uyg‘onishlar — Birinchi va Ikkinchi Renessans aynan bizning diyorimizda vujudga kelgani ham haqiqat. Bugungi navqiron avlod orasidan o‘sha ajdodlarimiz yaratgan ixtiroyu kashfiyotlarni takrorlashga qodir yoshlar yetishib chiqishiga puxta zamin hozirlanmoqda.

Prezidentimiz raisligida 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidan so‘ng yuqoridagi fikrlar xayolimdan o‘tdi. Yig‘ilishda ustuvor vazifalar bir maqsadga — ta’lim sifatini zamon talabi darajasida tashkil etishga qaratildi. Bunga erishish uchun ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagog-murabbiylar mahoratini oshirish, ta’limga innovatsion texnikalarni joriy etish, o‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimini yaratish, o‘g‘il-qizlarni kasb-hunarga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jizzax viloyatida mavjud 558 ta ta’lim muassasasida yoshlarga bilim berish uchun yetarli sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tahsil olayotgan 266 ming 796 o‘quvchiga 23 ming 232 o‘qituvchi saboq bermoqda. O‘tgan yili 141 ta ta’lim maskanida qurilish-ta’mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirildi. Bu ishlarga 105 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

Konstitutsiyamizga muvofiq, zamonaviy va sifatli bilim olishga har bir o‘quvchi haqli. Demak, o‘qituvchi buning uddasidan chiqishi — o‘z ustida ishlashi lozim. O‘quvchilarning ilg‘or texnologiyalar asosida bilim olishi muhim. Buning uchun o‘tgan yili viloyatdagi 223 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi 3557 ta zamonaviy kompyuter texnikasi, 44 ta maktab elektron doska, 14 maktab esa robototexnika vositalari bilan ta’minlandi.

Davomi 5-betda

Xotira uyg‘onsa go‘zal

Farg‘onaning Lolasi

Prezidentimizning Orolbo‘yida turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq tashabbuslari ham samara berdi. Bugun nafaqat yurtimiz va qo‘shni davlatlar, balki dunyoning turli mintaqalaridan kelayotgan mehmonlarning katta qismi aynan Qoraqalpog‘istonni ko‘rish uchun kelayotgani odamni quvontiradi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 7-mart, 48-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Iftixor

GULLAR VODIYSIDA UMIDLAR O‘SAR

Guliston ANNAQILICHEVA,
“Qoraqalpoq adabiyoti” gazetasi bosh muharriri, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi

Boshlanishi 1-betda

Tan olish kerak, bugun Qoraqalpog‘iston jadal rivojlanayotgan hududga aylanib ulgurdi. Birgina yangi Mo‘ynoq misolida xalqimiz qalbiga umid, ertangi kunga ishonch uyg‘ondi. Ishlab chiqarish, sayyohlik va boshqa ko‘plab sohalardagi jiddiy o‘zgarishlar mo‘ynoqliklarning hayotida tub burilish yasadi.

Bir vaqtlar Qoraqalpog‘iston qora-ko‘lchilikda yetakchi edi. Keyinchalik tabiatdagi muammolar sabab bu soha ham yo‘qlikka yuz tutgandi. Oxirgi yillardagi o‘zgarishlar sabab dashtlardagi quduqlar qayta o‘zlashtirildi. Ulardan suv chiqishi bilan chorvachilik rivoj topa boshladi. Mana endi yana qorako‘lchilikka katta e’tibor qaratilmoqda. Shuning o‘ziyoq dashtda, chorva bilan kun ko‘radigan oddiy odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etmoqda.

Prezidentimizning Orolbo‘yida turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq tashabbuslari ham samara berdi. Bugun nafaqat yurtimiz va qo‘shni davlatlar, balki dunyoning turli mintaqalaridan kelayotgan mehmonlarning katta qismi aynan Qoraqalpog‘istonni ko‘rish uchun kelayotgani odamni quvontiradi. Xalq orasida tuya cho‘kdi, degan ibora bor. Tuya ikki holatda cho‘kadi. Biri qorni to‘yganida. Ikkinchisi, karvonsaroyga yetganida. Bugun ana shu ikki sabab tufayli ham Qoraqalpog‘istonda tuyalar cho‘kmoqda. Yuqorida aytganimizdek, quduqlar qazilib, yaylovlarimiz obod bo‘ldi. Islohotlar samarasi o‘laroq ishlab chiqarish, tadbirkorlik, turizm kabi iqtisodiyotning drayver sohalari rivojlanmoqda. Natija ham shunga yarasha quvonchli. Qadim ibora bilan aytganda, dunyoning tijorat ahlini o‘ziga rom etadigan karvonsaroyiga aylanyapti.

Bu yil bahor Qoraqalpog‘istonga boshqacha keldi. Davlatimiz rahbari Xorazmga tashrifi chog‘ida yangi bunyod etilgan ko‘prikni ochib berdi. Do‘stlik ko‘prigi xalqimiz uchun juda katta tuhfa bo‘ldi. Bu inshoot nafaqat masofani, balki dillarni ham yaqinlashtirdi. Shu paytgacha odamlar o‘tgan asrning elliginchi yillaridagi eski ponton ko‘prikdan foydalanib kelardi. Doim bahorda muz erib, daryoda suv ko‘payishi bilan u jiddiy shikastlanardi. Bu daryoning ikki tomonidagi aholiga qiyinchilik tug‘dirardi. Masalan, Amudaryo tumani aholisi avtomobilda Nukusga borish uchun Urganch va Beruniy orqali yurishga majbur edi. Buning uchun qo‘shimcha 180 kilometr yo‘l bosishga to‘g‘ri kelardi. Poyezdda esa Xorazmning sharq tomonidagi Hazorasp ko‘prigidan o‘tib kelinardi. Yangi ko‘prik sabab shu muammolar hal bo‘ldi.

Prezidentimiz ko‘prik ochilishida Qoraqalpog‘iston xalqi bilan ham uchrashdi. Ushbu samimiy muloqot davomida davlatimiz rahbarining “Orolbo‘yi mintaqasini, xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasini rivojlantirish, avvalo, ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatib, murakkab vaziyatda yashayotgan aholimizga qulay sharoitlar yaratish mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasining bosh maqsadlaridan biridir. Ilgari ham aytganimdek, Qoraqalpog‘istonning taqdiri — bu O‘zbekistonning taqdiri, qoraqalpoq xalqining baxti va farovonligi — bu butun O‘zbekiston xalqining baxti va farovonligidir. Bugun mana shu ezgu maqsadni amalga oshirish yo‘lida yana bir ulkan qadam qo‘ymoqdamiz”, degan samimiy gaplari qalbimiz to‘ridan o‘rin oldi. Xalqimiz kayfiyatini yanada ko‘tardi. Ertangi kunga ishonchimiz mustahkamlandi.

Ba’zan inson qadri nima deb o‘ylayman. Inson mehnatiga yarasha rag‘bat olsa, salohiyatidan yetarlicha foydalanishga imkon berilsa. Aynan shu jihatlar orqali u ijtimoiy himoyada bo‘ladi. Iqtisodiy ahvolini yaxshilaydi, orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘ladi. Aslida, insonning qadr topgani shu.

Bundan 7-8 yil avval Qoraqalpog‘istonga kelgan kishi hozir Nukus ko‘chalaridan tortib, olis yangi Mo‘ynoq massividagi o‘zgarishlarni ko‘rib hayratlanishi tayin. Bularning barchasi inson qadri yo‘lida bajarilayotgan amaliy ishlar, islohotlar samarasidir.

Munosabat

HALOL MEHNAT, SABR-U TOQATNING MUKOFOTI

Kelin bo‘lib tushgan xonadonim hunarmandlar oilasi. Bizning oiladan esa haykaltarosh, rassomlar yetishib chiqqan. Aka-opalarim singari men ham rasm chizishga, yaratuvchanlikka intilar edim. Shu bois, qaynonam do‘ppi, to‘n tikkanida gul tasvirlarini, qo‘l harakatlarini tez ilg‘ab olardim. Qisqa muddatda do‘ppido‘zlikni o‘rganib oldim. Turmush o‘rtog‘im harbiy bo‘lgani uchun turli hududlarga ko‘chib yashashimizga to‘g‘ri keldi. O‘sha joylarda bolalar bog‘chalarida ishlab, suvenir do‘ppi, qo‘g‘irchoqlar tikib, bolalarni o‘ynatar edim. Qo‘lim tobora kelishib, hunarimga mehrim oshib boraverdi.

Mayramxon ERGAZIYEVA,
do‘ppido‘z, “Do‘stlik” ordeni sohibasi

Turmush o‘rtog‘im nafaqaga chiqqanidan keyin hunarmandlik bilan astoydil shug‘ullanishga qaror qildik. “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘ldik. Qarangki, biz a’zo bo‘lishimiz bilanoq Marg‘ilonda ipakchilik festivali o‘tkazildi. Festival doirasida o‘tkazilgan hunarmandlik ko‘rgazmasiga biz ham taklif qilindik. O‘sha paytdagi imkoniyatimiz uchun anchagina bo‘lgan mahsulotlarimizni ikki kunda sotib bo‘lib, yana sovg‘a-salomlar bilan qaytganimiz bizni ruhlantirib yubordi. Shu tariqa faoliyatimizni yanada kengaytirish, yangi mahsulotlar yaratishga kirishib ketdik.

Har yili ko‘rgazmalar, tadbirlar, bayramlarda qatnashib, xaridorlar e’tiborini tortdik, o‘zaro tajriba almashish, savdo-sotiq borasida tanishbilishlar orttirdik. Respublikamizning barcha hududlarini kezdik, har yerning o‘z qadriyatlari, an’analari o‘ziga xosligini hunarmandlarning qo‘l mehnatlarida ko‘rdik, his qildik. Eng muhimi, ular bilan tajriba almashdik.

O‘zimiz yashayotgan hududdagi ta’lim muassasalarining barchasi, hunar maktablari takliflari bilan uchrashuvlar o‘tkazib, yoshlar uchun mahorat darslari tashkil qilamiz. Shogirdlikka keladiganlarga eshigimiz doim ochiq. Yosh avlodga milliy hunarlarimizni o‘rgatishni eng savobli, xayrli ish deb bilamiz. Andijon viloyati hokimligi ham mehnatlarimizni qadrlab, imtiyozli kredit asosida ko‘p qavatli uylardan xonadon olishimizga yaqindan amaliy yordam ko‘rsatdi. Buni qarangki, endi mehnatimiz respublika miqyosida ham qadrlanib, Prezidentimiz, davlatimiz e’tiboriga tushibdi.

Bizga qo‘ng‘iroq qilib, “poytaxtga borishlaring kerak”, deyishganida, “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandingiz, degan xabarni eshitganimda, to‘g‘risi, nihoyatda to‘lqinlanib ketdim. Ko‘rgazmalarda hamisha men bilan birga ishtirok etadigan turmush o‘rtog‘imning ham ko‘zidan yosh chiqib ketdi.

Axir davlatimiz rahbarining e’tiboriga tushish shunchaki emas-da! Halol mehnat, sabr-toqatning, albatta, mukofoti bor ekaniga yana bir karra ishondik.

Biz va dunyo

JAHON TURIZM SANOATIDA MUHIM VOQELIK

XORIJIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA EKSPERTLAR “2027-YIL — XALQARO BARQAROR VA YASHOVCHAN TURIZM YILI” REZOLYUTSIYASI HAQIDA

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyutsiyasi keng jamoatchilik, ekspert va tahliliy doira vakillari, BMTning ixtisoslashgan agentliklari va xalqaro tashkilotlarning yuqori qiziqishiga sabab bo‘layotir.

Xususan, **“BNN Breaking”** xalqaro axborot agentligi mazkur hujjatning qabul qilinishini “jahon turizm sektoridagi muhim voqea” sifatida baholadi. Ta’kidlanishicha, BMT tomonidan 2027-yil Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili, deb e’lon qilinishi sayyohlik sanoati oldida turgan murakkab muammolarni tan olish va hal qilish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Rezolyutsiya yanada barqaror, yashovchan va inklyuziv turizm sektorini yaratish uchun hamkorlik hamda innovatsiyalarni rag‘batlantirib, kelajak uchun aniq yo‘nalishlarni belgilab beradi.

“Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili iqtisodiy o‘sish, atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi uyg‘un muvozanatga intilib, sanoatning sayyoramiz hamda uning aholisiga ta’sirini qayta aniqlash uchun noyob imkoniyat taqdim etadi”, deyiladi “BNN Breaking” tarqatgan maqola xulosasida.

Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) 2027-yilning Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili, deb e’lon qilinishi turizmning barcha uchun yaxshiroq dunyo barpo etishdagi rolining yaqqol e’tirofi ekanini ta’kidladi. “Bu sayyohlik kuchli va har qanday qiyinchiliklarga samarali dosh bera oladigan darajada xilma-xil bo‘lishini ta’minlash uchun birgalikda ishlash imkoniyatidir”, deyiladi tashkilot xabarida.

UNWTO, shuningdek, O‘zbekistonga va ushbu hujjatning 80 dan ortiq boshqa hammualliflariga rezolyutsiya tashabbuskorligi va qo‘llab-quvvatlaganliklari uchun samimiy minnatdorlik bildirgan.

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining (FAO) Tog‘lar bo‘yicha hamkorlik guruhi portalida e’lon qilingan maqolada yozilishicha, tog‘ turizmi barqaror boshqarilsa, mahalliy hamjamiyatlarning daromadini oshirish va ularning tabiiy resurslari hamda madaniyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Shu munosabat bilan Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili barcha davlatlar, BMT tizimi va boshqa tuzilmalar uchun sayyohlikning barcha darajalarida, jumladan, tog‘li hududlarda turizmni rivojlantirish va targ‘ib qilish vositasi sifatida faoliyat yuritish hamda barqaror rivojlanishni jadallashtirish uchun noyob imkoniyat ekani ta’kidlanadi.

Qayd etilishicha, turizm industriyasi (turistik assotsiatsiyalar, kompaniyalar, turoperatorlar) vakillari O‘zbekiston tashabbusini iliq kutib olgan.

Barqaror turizmni rivojlantirishga ixtisoslashgan **“GUAVA”** sayyohlik kompaniyalarining yirik tarmog‘i Bosh Assambleya rezolyutsiyasining qabul qilinishini yuqori baholadi. **Agentlik rahbari Gabriel Tan** o‘z bayonotida turizm sektori jahon yalpi ichki mahsulotiga salmoqli hissa qo‘shishini, butun dunyo bo‘ylab 300 milliondan ortiq kishini ish bilan ta’minlashini ta’kidladi. Uning aytishicha, sanoat BRM maqsadlariga erishish uchun kalit hisoblanadi va turizm sektorini o‘zgartirishga qaratilgan sa’y-harakatlar juda muhimdir.

“GUAVA Net-Zero” kompaniyasi ekotizimidagi global strategik hamkorlari bilan birgalikda rezolyutsiyani amalga oshirish va turizm orqali Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha xalqaro sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini tasdiqladi.

Xalqaro amaliy fanlar universiteti professori, mehmonxona biznesida barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha ko‘plab ma’ruzalar muallifi **Villi Legrand** ushbu muhim rezolyutsiyaning qabul qilinishi bilan samimiy tabriklar ekan, mazkur hujjatning akademik doira vakillari va ta’lim muassasalari talabalari uchun muhim ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tadi.

“Ushbu yangilik haqiqatan universitetlar bitiruvchilari kelajakda bajarishi kerak bo‘lgan vazifalarni qonuniylashtirishda kuchli turtki bo‘lib, ayni paytda turizm sanoatining barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi asosiy rolini e’tirof etadi”, dedi u.

Bosh Assambleya rezolyutsiyasiga ko‘ra, Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yilini muvofiqlashtirish va amalga oshirish vazifalari UNWTO zimmasiga yuklangan bo‘lib, u o‘z navbatida, Xalqaro yil uchun aniq vazifalarni belgilab beruvchi strategik rejalar hamda “Yo‘l xarita”larini ishlab chiqadi.

Ushbu rezolyutsiyani amalga oshirish bo‘yicha UNWTOning tegishli hujjatlari qabul qilinishi kutilmoqda. Shuningdek, Xalqaro yil munosabati bilan yirik global va mintaqaviy forumlar va tematik tadbirlar tashkil etiladi, jahonning yetakchi ommaviy axborot vositalarida keng ko‘lamli axborot kampaniyalari olib boriladi, jahon hamjamiyatining xabardorligini oshirish va turizm industriyasi institutlarining salohiyatini oshirishga qaratilgan turli loyiha va dasturlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik farovonlikni ta’minlashda turizmning afzalliklarini ochib berishga bag‘ishlangan ilmiy nashrlar chop etiladi.

Milliy, mintaqaviy va global miqyosda amalga oshirilgan ishlar natijalariga ko‘ra, UNWTO 2028-yilda Bosh Assambleyaga batafsil hisobot taqdim etadi.

“Dunyo” AA
Nyu-York

Inson qadri uchun

MUHTOJGA MADAD — EZGU ODAT

Kuchli ijtimoiy himoya mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri. Bu borada qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar mazkur yo‘nalishdagi ishlarni muvofiqlashtirish, muassasa va tashkilotlar vazifalarini aniqlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bugun odamlarni ish bilan ta’minlash, biror-bir faoliyat turiga jalb etishning eng samarali yo‘li — ularni kasb-hunarga o‘qitish ekani yurtimiz tajribasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Qayd etish kerakki, o‘tgan qisqa vaqt ichida yoshlar, ayniqsa, ishsiz aholi qatlamini bu jarayonga jalb qilish, kelgusida oliy ta’limni davom ettirish yoki ettirmasligidan qat’i nazar, ularga asqotadigan biror hunarni o‘rgatish, egallagan kasbi bo‘yicha bo‘sh ish o‘rinlari yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunda nogironligi bo‘lgan shaxslarga alohida e’tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor.

Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham bu masala o‘z aksini topgani ahamiyatlidir.

Davlat dasturining 23-maqsadida nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni shakllantirish, ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish borasida qator vazifalar belgilandi. Xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslarga munosib ish o‘rinlari yaratish orqali bandligini ta’minlash, nodavlat notijorat tashkilotlarni jalb qilish uchun buyurtma loyihalarini amalga oshirish shular jumlasidan.

Ijtimoiy xizmat va yordamni mahalla darajasida tashkil etish, ehtiyojmand toifani aniqlash bo‘yicha yangi mezonlar ishlab chiqish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yanada yaxshilash, bino va inshootlar, jamoat transporti, bekat, chorrahalarda ular uchun to‘siqsiz muhit yaratish kabi masalalar davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 20-fevral kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida ham ko‘rib chiqilgan edi.

Ahamiyatlisi, yig‘ilishda nogironligi bo‘lgan shaxslarni kasbga o‘qitish, ishga joylash va sportga jalb qilish bo‘yicha milliy tizim yaratilishi qayd etildi. Darhaqiqat, bugun nogironligi bo‘lsa-da, davlat tomonidan yaratib berilgan sharoitlar tufayli kasb o‘rganib, yaxshi daromad topayotgan, oilasiga, jamiyatga foyda keltirayotganlar kam emas.

Inson borki, orzu-umid bilan yashaydi. O‘ziga berilgan umrni mazmunli o‘tkazishga harakat qiladi, hayot bergan imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishga intiladi. Garchi ba’zi imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa-da.

Ana shunday yurtdoshlarimizdan biri poytaxtimizda istiqomat qilayotgan Yoqutxon Normatova. U to‘rt yildan buyon qo‘l mehnati orqali bejirim, betakror guldastalar yasash bilan shug‘ullanib kelmoqda. Uning aytishicha, bu kasb nafaqat hayoti mazmuniga, balki doimiy daromad manbaiga ham aylanib ulgurgan.

— Inson qachon baxtli bo‘ladi? Qachonki, uning o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadi bo‘lsa, — deydi Y.Normatova. — Insonni bekorchilik ado qiladi. Hamma bo‘lmag‘ur narsalar, xususan, kasallik, jinoyatchilik va boshqa noxush illatlarning asosi ham bekorchilik. Mehnat esa umidsizlikning oldini olishga, ertangi kunga ishonch bilan boqishga zamin yaratadi. Eng muhimi, kunlik daromadingiz bo‘ladi. Davlatimiz rahbarining sohaga qaratayotgan e’tiboridan juda xursandman. O‘tgan hafta o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishini ko‘rib, berilayotgan imkoniyatlardan quvondim. Imkoniyati cheklangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlab, dardimizni his qilib, shunga munosib yaratib berilayotgan sharoitlardan minnatdormiz.

O‘zbekiston Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga 2021-yilda qo‘shilgan. Mamlakatimizda bizga o‘xshagan kishilarni ishga olgan korxona va tashkilotlar uchun bir qator imtiyozlar berilgan. Lekin ko‘p muassasalar, ko‘chalar va bekatlar imkoniyati cheklangan shaxslar harakatlanishiga moslashmagani uchun qiyinchiliklarga duch kelayotgan edik.

Shu bois, endi nogironligi bo‘lgan shaxslarni o‘qitish, ishga joylash va sportga jalb qilish bo‘yicha milliy tizim yaratiladigan bo‘ldi. Shu bilan birga, nogironligi bo‘lgan shaxslarga ishlash va kasb-hunarga o‘qishda to‘siqsiz muhit yaratish uchun ularning “mehnatga layoqatini belgilash” amaliyotidan voz kechiladi. Bunda nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanishi juda muhim.

Bugun mamlakatimiz, tom ma’noda ijtimoiy davlatga aylanmoqda. Yoqutxon egallagan kasbi orqali nafaqat oilasini tebratmoqda, balki o‘zi kabi xotin-qizlarga ushbu hunarni o‘rgatib kelmoqda. Bu borada olib borilayotgan ishlar esa unga o‘xshagan ko‘plab yurtdoshlarimizni hayotda yangicha umid bilan yashashga ilhomlantiryapti.

— Ayni paytda yurtimizda bir millionga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar istiqomat qilyapti, — deydi O‘zbekiston Nogironlar jamiyati raisi Komil Abdullayev. — Bu mamlakatimiz aholisining 2-2,3 foizini tashkil etadi. Prezidentimiz videoselektor yig‘ilishida bu boradagi juda muhim vazifalarga e’tibor qaratdi. Jumladan, 2024-yil 1-iyundan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi o‘zgaradi. Bunda ehtiyojmand toifani aniqlash bo‘yicha mezonlar ishlab chiqiladi va ularning aynan qanday yordamga muhtojligi aniq belgilab beriladi. Muhtojlarning har biri bo‘yicha individual ijtimoiy xizmatlar dasturi bo‘ladi.

Ma’lumki, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzurida monomarkazlar tashkil etilgan. Bu markazlar talabgorlarni 40 dan ortiq kasb-hunarga o‘qityapti. Nogironligi bo‘lgan shaxslar ham aynan shu yerda kasb-hunar o‘rganmoqda. E’tiborli jihati, ular qisqa vaqt — uch oy davomida bitta kasbning egasi bo‘lib chiqyapti.

Yana bir yangilik: endilikda monomarkazlarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishi uchun qulay muhit va infratuzilma yaratilib, ularga stipendiya to‘lash tartibi joriy etiladi. Ular yaratgan kasanachilik va hunarmandchilik mahsulotlarini elektron platforma orqali sotish yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, xodimlarining 50 foizida nogironlik bo‘lgan tadbirkorlarga davlat buyurtmachilari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish imkoniyati beriladi. Bunday shaxslarni kasbga tayyorlaydigan 4 ta ixtisoslashgan maktab sanoat tarmoqlariga biriktiriladi.

“Inson qadri uchun” iborasi jamiyatning har bir fuqarosiga daxldor va albatta, nogironligi bo‘lgan shaxslar ham bundan mustasno emas. Shunday ekan, ularga qulay sharoit yaratish, ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatish masalasi doimiy e’tiborda bo‘lib qolaveradi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni

AYOLLARI BAXTLI YURTNING YO‘LI YORUG‘, ISTIQBOLI CHAROG‘ONDIR

Boshlanishi 1-betda

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva bilan suhbatimiz mazkur farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha qilinayotgan ishlar, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, salomatligini asrash, gender tenglikni ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarning amaldagi samaralari haqida bo‘ldi.

— Bugungi fayzli hayotimizni, obod va farovon turmush barpo etish yo‘lidagi ezgu niyatlarimiz ro‘yobini hayotimizning fayz-u farishtasi bo‘lmish muhtarama ayollarimiz, oqila qizlarimizning oila va jamiyatdagi faol ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, — deydi O.Parpiboyeva. — Shu bois, opa-singillarimizning oila va jamiyatdagi rolini oshirish, islohotlarda faolligini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi hamda bandligini oshirish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, gender tenglikni ta’minlash borasida tizimli ishlar qilinyapti.

Jumladan, xotin-qizlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha 2022-2026-yillardagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan milliy dastur qabul qilindi. Mahallaga va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratildi. Respublikamizda ilk bor xotin-qizlar haqida to‘liq ma’lumotlarni qamrab olgan “Xotin-qizlar.uz” milliy platformasi, 17 ta yo‘nalish va 138 ta ma’lumot bazasini o‘z ichiga olgan “Xotin-qizlar balansi” yaratildi.

Prezidentimiz bu yo‘nalishdagi islohotlarning maqsad-mohiyati haqida to‘xtalar ekan, **“Xotin-qizlar va oila masalasi — bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo‘lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o‘nta yaxshilik bo‘lib qaytadi”,** deya ta’kidlagandi.

Darhaqiqat, ayol baxtli bo‘lsa, oila va jamiyatdagi muhit barqaror bo‘ladi. Barqarorlik bor joyda esa ulkan marralarni ko‘zlab yuksakka intilish mumkin. Shu maqsadda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarga ko‘mak berish, oilaviy sharoitini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilyapti. Mahalladagi xotin-qizlar faollari tomonidan “xonadonbay” yurish va “fuqarobay” yondashuv asosida suhbatlar natijasida 15 milliondan ziyod xotin-qizning ma’lumoti yangilandi. “Muammolar” moduli orqali qariyb 559 mingta muammo aniqlanib, asosiy qismi bartaraf etildi. Migratsiyadagi 9,5 mingdan ortiq xotin-qizning oilalariga yordam ko‘rsatildi, voyaga yetmagan farzandlari bor ayollar migratsiyadan qaytarildi.

Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, manzilli qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha izchil ish olib borilyapti. Bu borada “Ayollar daftari”ni yuritish yo‘lga qo‘yilgani samarasini beryapti. 2023-yilda 4-bosqichda ushbu daftarga kiritilgan 1 milliondan ziyod ehtiyojmand xotin-qizning qariyb barchasiga yordam ko‘rsatildi. Ulardan 423 mingdan ortig‘ining bandligi ta’minlandi, salkam 49 ming nafariga 448,1 milliard so‘m kredit ajratildi.

Bundan tashqari, uy-joyga muhtoj opa-singillarimizning qariyb 1,5 ming nafari uyli bo‘ldi. 7175 nafariga ijara kompensatsiyasi to‘landi, 6 mingdan ortig‘ining uy-joyi ta’mirlab berildi. Boquvchisini yo‘qotgan, nogironligi, shuningdek, qaramog‘ida nogiron farzandlari bor 512,5 mingdan ziyod xotin-qizga 900 milliard so‘mdan ziyod moddiy yordam ko‘rsatildi.

Bu ro‘yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Muhimi, bunday ezgu ishlar orqali qancha xonadonlarga quvonch va shodlik kirdi, minglab ayollarning ruhi ko‘tarilib, ertangi kunga ishonchi mustahkamlandi.

Xotin-qizlar salomatligini asrash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, milliy genofondni yaxshilash maqsadida o‘tgan yili 2,7 milliondan ortiq xotin-qiz tekshiruvdan o‘tkazilib, 3190 nafari sog‘lomlashtirishga jalb etildi. Xonadonlarda sog‘lom turmush tarziga rioya etilishi bo‘yicha “Xonadon gigiyenasini baholash” elektron platformasi yaratildi. Xotin-qizlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish maqsadida mehnat jamoalari va mahallalarda 30 mingdan ziyod sport musobaqasi, haftalik va festivallar o‘tkazildi. Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj 10,5 mingdan ziyod xotin-qiz 13 milliard so‘mlik reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlandi. 2137 nafariga jarrohlik amaliyotlari va davolanish xarajatlari uchun 35,5 milliard so‘m yo‘naltirildi.

Xususiy sektorda band bo‘lgan ayollarga homiladorlik va tug‘ish nafaqalarini minimal iste’mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqib, budjet mablag‘laridan to‘lab berish tartibi yo‘lga qo‘yildi. 2022-yilda 3700 dan ortiq ayolga shu turdagi nafaqa pullari to‘langan bo‘lsa, 2023-yilda 12 ming 140 nafari bu imkoniyatdan bahramand bo‘ldi.

— Ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar qanday natija beryapti?

— Uddaburonlik, ishbilarmonlik, boriga baraka kiritish o‘zbek ayolining oqilaligi va donoligini ifoda etuvchi go‘zal sifatlardan. Mehridaryo opa-singillarimizning shunday go‘zal fazilatlari tufayli oilalarda to‘kinlik, mehr-oqibat muhiti barqaror. Bugungi kun bunday milliy an’analarimiz bardavomligini ta’minlash barobarida zamon bilan hamnafas qadam tashlashni ham talab etmoqda. Ya’ni ayollar nafaqat oila, ro‘zg‘or ishlarida, balki jamiyatning har bir sohasi, ayniqsa, tadbirkorlik yo‘nalishida faol bo‘lishi davr talabidir.

Bu borada xotin-qizlar uchun imkoniyat va imtiyozlar yil sayin kengayib boryapti. Buni birgina o‘tgan yili tegishli dasturlar doirasida 187 ming 599 ayolga 3,223 trillion so‘m kredit, 39 mingdan ziyodiga 179,1 milliard so‘m subsidiya ajratilgani misolida ham ko‘rish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi faolligini qo‘llab-quvvatlash, huquq va imkoniyatlarini kengaytirishda har bitta mahallada xotin-qizlar faollari hamda aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga mas’ul hokim yordamchilari instituti joriy etilgani ayni muddao bo‘ldi. Hokim yordamchilari tavsiyasiga asosan, xotin-qizlarga subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti joriy etildi.

Hududlarda ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasida kasanachilikni yanada rivojlantirish orqali ishsiz aholi, ayniqsa, xotin-qizlar bandligini ta’minlash yuzasidan tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, fuqarolik-huquqiy shartnomalar va pudrat shartnomasi asosida kasanachilikni tashkil etishga ruxsat berildi, aynan kichik biznes subyektlarida rivojlantirish uchun sharoitlar yaratildi.

O‘tgan yil ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlash borasidagi ana shunday keng qamrovli ishlar natijasida 405 mingdan ziyod xotin-qizning bandligi ta’minlandi. Qariyb 210,5 ming nafari kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. Bir qarashda bu raqamlar aytishga oson. Lekin masalaga har bir raqam ortida bir inson, xotin-qiz taqdiri, demak, bir oilaning farovonligi, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashdek muhim jihatlar turgani nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bu muhim jarayon, katta yutuq ekani o‘z-o‘zidan anglashiladi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 21-sentabrdagi “Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu ishlarga yangicha ruh bag‘ishladi. Qaror ijrosi doirasida o‘tgan vaqt mobaynida 1,5 mingdan ortiq mahallada 981 ta tikuvchilik, 104 ta pazandalik, 34 ta qandolatchilik, 397 ta fitness va sheyping



kabi xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan ishlab chiqarish va salomatlik markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ularda 9,5 mingdan ziyod xotin-qizning bandligi ta’minlandi, 14 ming 700 nafarga yaqini esa kasb-hunarga o‘qitildi.

Ushbu natijalarga qaramay, oldimizda hali vazifalar ham talaygina. Xususan, xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish borasida rejalarimiz ko‘p. Buning uchun, eng avvalo, ularning tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirish kerak. Tegishli moliya muassasalari bilan hamkorlikda qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etilib, ularni muvaffaqiyatli yakunlagan xotin-qizlarga imtiyozli shartlarda kreditlar ajratiladi. Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida o‘qib sertifikat olgan ayollarning loyihalarini qisqa muddatda moliyalashtirish choralari ko‘riladi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida xotin-qizlarga kreditlar ajratish masalasiga ham alohida e’tibor qaratiladi.

— Xotin-qizlarning ta’lim olishi, ilm-fan sohasida faoliyat yuritishi uchun ham ko‘plab imkoniyatlar yaratilyapti. Bular opa-singillarimiz hayotida qanday ijobiy o‘zgarishga turtki bo‘lmoqda?

— To‘g‘ri aytasiz, oliy ta’lim olish niyatida bo‘lgan qizlarga yengilliklar yaratish alohida e’tiborda turibdi. Bu ishlar samarasi tufayli oliygohlarda o‘qiyotgan xotin-qizlar soni bir necha barobar ko‘paydi. Ya’ni bugungi kunda oliy ta’lim olayotgan talabalar orasida qizlarimizning ulushi 50 foizga yetgani tariximizda misli ko‘rilmagan natija bo‘ldi.

Bunday natijaga erishishda ularning har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2022-2023-o‘quv yilida 14 ming 110 nafar magistrant qizning 153,4 milliard so‘m kontrakt to‘lovi to‘lab berildi. Shu davrda qariyb 230 ming talaba xotin-qizga foizsiz ta’lim kreditlari ajratildi hamda ta’lim kreditlari uchun hisoblangan foiz mablag‘lari to‘lab berildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarda voyaga yetayotgan qizlar hamda ilk marotaba mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan, lekin oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan xotin-qizlar qo‘mita tavsiyanomasi asosida oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosida talabalikka qabul qilinmoqda.

> Sa’y-harakatlarimizning barchasi mo‘tabar onalarimiz, munis ayollarimiz, oqila qizlarimizning baxtu iqbolini ko‘zlab qilinmoqda. Zero, ayolning baxt-saodatga erishishi oilaning, jamiyatning katta yutug‘idir. Ayollari baxtli elning esa buguni va ertasi farovon bo‘ladi.

Bunday sa’y-harakatlar, albatta, yoshlarimiz kamolotida muhim o‘rin tutmoqda. Bular opa-singillarimizning oilada va jamiyatda faolligini oshirish, orzu-umidini ro‘yobga chiqarish, yangilanish jarayonlarida o‘z o‘rnini keng namoyon etishiga mustahkam zamin yaratdi. Natijada xotin-qizlarning davlat va jamoat ishlarida ishtiroki kengaymoqda, turli sohalarda samarali mehnat qilyapti.

— Gender siyosatining samaralariga ham to‘xtalib o‘tsangiz.

— Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ular uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ikkita muhim qonun — “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Qarorlar qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Ularning boshqaruv lavozimidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlikda 37 foizga, siyosiy partiyalarda 46 foizga yetdi.

Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo‘yicha alohida “Rahbar ayollar maktabi” o‘quv kurslari tashkil etilib, har yili kamida 100 nafar xotin-qiz o‘qitilmoqda. Tuman (shahar) hokimlari lavozimida 5 nafar ayol faoliyat yuritmoqda.

Oliy Majlis Senati kengashi qarori bilan ushbu yo‘nalishdagi ishlarni chuqur tahlil va targ‘ib qilish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, jamiyat hayotida faolligini yanada oshirish maqsadida 2020-yildan buyon “Gender tenglik faoli” milliy tanlovi o‘tkazib kelinmoqda.

Gender tenglikni ta’minlash borasida erishilayotgan yutuqlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e’tirof etilmoqda. O‘zbekistonning aynan shu yo‘nalishdagi pozitsiyasi qator xalqaro reytinglarda bosqichma-bosqich yaxshilanib bormoqda. O‘zbekiston 2022-yildagi Global innovatsion indeksida 4 pog‘ona yuqorilab, 82-o‘rinni (2021-yilda 86-o‘rin) egalladi. Parlamentda xotin-qizlar soni BMTning tavsiyalariga mos darajaga yetdi. Ochiq gender ma’lumotlar indeksida esa 69,7 ball to‘plagan holda jahondagi eng yaxshi 20 ta mamlakat safidan joy oldi.

Yaqinda Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun” yillik hisoboti e’lon qilindi. Hujjat 190 ta davlat, jumladan, O‘zbekistonda ayollarning ahvolini 10 ta ko‘rsatkich: “xavfsizlik”, “harakatlanish erkinligi”, “bandlik”, “mehnatga haq to‘lash”, “nikoh”, “ota-onalik”, “bolalarni parvarishlash”, “tadbirkorlik”, “mulkni boshqarish” va “pensiya ta’minoti” bo‘yicha baholaydi. Bu davrda atigi 18 ta davlat yoki indeksda baholangan davlatlarning 10 foizidan kamrog‘i yuqoridagi ko‘rsatkichlar doirasida ayollarning mavqeini yaxshilaydigan huquqiy islohotlarni amalga oshirgan. Quvonarlisi, O‘zbekiston bu jabhada eng katta muvaffaqiyatga erishgan beshta davlat qatoridan joy oldi.

— Sir emas, jamiyatimizda xotin-qizlarning faolligini oshirish borasida erishilayotgan ana shunday yutuqlarga soya soladigan illatlar ham uchrab turibdi. Bu holatlarni bartaraf etish uchun qanday choralar ko‘rish zarur, deb hisoblaysiz.

— To‘g‘ri, ayollar huquqini himoyalash bo‘yicha yutuqlarimiz salmoqli, ammo muammolar yo‘q emas. Hayotimizda bot-bot uchrab turadigan oilaviy nizolar, ayollar jinoyatchiligi, oilalardagi zo‘ravonlik, erta unashtiruv, qarindoshlar nikohi kabi holatlar bunga misol.

O‘tgan yili Farg‘onada Prezidentimiz raisligida hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida oilaviy nizolar, ayollar jinoyatchiligi holatlariga ham e’tibor qaratilgani bejiz emas. Chunki jamiyatda barqarorlik muhitiga erishish uchun, avvalo, ayollarni qiynayotgan muammolarga yechim topish lozim. Shu maqsadda ijtimoiy-maishiy muammosi bor oilalar bilan ishlash davlat idoralarining birinchi galdagi vazifasi bo‘lishi kerakligi ta’kidlangan edi.

Bu borada qo‘mitamiz tomonidan ham keng qamrovli ishlar qilinyapti. Ayollar o‘rtasida jinoyatchilikni keskin qisqartirish bo‘yicha “Farg‘ona tajribasi” yaratildi. Natijada “Xavfsiz oila” tamoyili asosida alohida ish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Adashib turli jinoyatlarga qo‘l urib, profilaktik hisobga olingan xotin-qizlar bilan tizimli ishlanyapti. 2023-yilda profilaktik hisobda turgan qariyb 58,7 ming xotin-qizning 23 ming nafarga yaqini moddiy-ma’naviy, ijtimoiy masalalarda amaliy yordam ko‘rsatish orqali hisobdan chiqarildi.

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari hamda “Ijtimoiy maslahatxona”lar orqali 2023-yilda ruhiy tushkun holatdagi 17 mingga yaqin xotin-qizga maslahat va tavsiyalar berilib, ijtimoiy yordam ko‘rsatildi. Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi muntazam targ‘ibot yurityapmiz. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarga himoya orderi berilyapti. Bu ishlar natijasida 2023-yilda 15,5 mingga yaqin oila yarashtirildi, qariyb 18,5 mingta nizoni bartaraf etishga erishildi.

“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yilgan yangi tizim asosida profilaktika inspektorlari tomonidan xotin-qizlar faollariga taqdim etilgan xulosalarning har birini “xonadonbay” va “fuqarobay” o‘rganish orqali ayollarga turli masalalarda ko‘mak berildi.

Joriy yilda davlatimiz rahbari raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bugungi taraqqiyotimizga to‘siq bo‘layotgan dolzarb masalalar qatorida voyaga yetmagan qizlarni unashtirish va yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh bilan bog‘liq holatlarning oldini olish, oqibatlarini tushuntirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotgani o‘rinli tanqid qilindi.

Xalqimiz, ijtimoiy tarmoqlarda faol jamoatchiligimiz yaxshi biladi, ayrim ota-onalar farzandlari voyaga yetmasdan turib oila qurishiga da’vatchi bo‘lib qolmoqda. Mahallalardagi faollarimiz, turli komissiyalarimiz ham ba’zan erta turmush holatlarining oldini ololmay qolyapti.

Voyaga yetmagan qizlarini unashtirayotgan, qarindoshi bilan quda bo‘lishni istab, farzandlarining kelajagiga bilib-bilmay ziyon yetkazayotgan ota-onalar mahalla tizimi bilan hisoblashmasligi, o‘zlari bilgancha ish tutishi ham, afsuski, mana shunday salbiy holatlarni ko‘paytirmoqda.

Shunday muammolardan biri qarindoshlar nikohi. Mutaxassislarning qayd etishicha, qarindoshlik nikohida bo‘lgan oilalardan tug‘ilgan bolalarda birinchi avlodda tug‘ma nuqson va irsiy kasalliklar ayrim hollarda kuzatilmasa-da, keyingi avlodlarda mazkur kasalliklar namoyon bo‘lishi ehtimoli yuqori hisoblanadi. Shu bois, ko‘pgina mamlakatlarda bunday nikohlardan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarning oldini olish bo‘yicha turli normalar belgilangan. Xususan, Fransiya va Niderlandiya kabilarda qisman taqiqlar mavjud. Unga ko‘ra, ushbu davlatlarda to‘rtinchi darajali qarindoshlar nikohdan o‘tishidan oldin belgilangan maxsus genetik tahlillarni topshirishi talab etiladi. Yaponiya, Pokiston, Turkiya kabilarda esa bu masala huquq normalari bilan emas, odat normalari ko‘rinishida jamiyatga singdirilib borilmoqda.

Biz ham amaldagi qonunchilik hujjatlarini bugungi kun talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqib yanada takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqyapmiz. Qonunchilikka o‘zgartirish kiritishni talab qiladigan omillar va sharoitlarni o‘rganish, uning zaruratini aholiga tushuntirish orqali muayyan ijtimoiy muhit va sharoitni yaratish, jamiyatimizda bu kabi o‘zgarishlar ongli qabul qilinishi uchun kompleks chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishimiz zarur.

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrdagi “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida bu yo‘nalishda keng qamrovli vazifalar belgilangan. Farmonga muvofiq, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining bo‘ysunuvi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligidan Vazirlar Mahkamasiga o‘tkazildi, qo‘mita faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Ayni paytda ushbu chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish bo‘yicha ish olib boryapmiz.

Albatta, bu sa’y-harakatlarimizning barchasi mo‘tabar onalarimiz, munis ayollarimiz, oqila qizlarimizning baxt-u iqbolini ko‘zlab qilinmoqda. Zero, ayolning baxt-saodatga erishishi oilaning, jamiyatning katta yutug‘idir. Ayollari baxtli elning esa buguni va ertasi farovon bo‘ladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bahor XIDIROVA
suhbatlashdi.

O‘tgan yili mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan 1,6 million tonna bug‘doy birja savdolari orqali barcha tadbirkorlik subyektlariga erkin sotildi. Buning hisobiga mahalliy klaster, fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan qo‘shimcha 30,2 milliard so‘m daromad olindi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 7-mart, 48-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Yangicha yondashuvlar

FERMER PAXTASINI BIRJADA SOTADI

Abdurauf QORJOVOV,
sharhlovchi

“Dehqonning kosasi oqardi” yoxud aksincha “oqarmadi” degan azaliy naql bor. Bu uning yil-o‘n ikki oy qilgan mehnati natijasiga qarab aytiladi. Paxtachilikda ham natijaning ijobiy tomonga posongi bosishi shudgorlash, urug‘ tanlash va ekish, o‘g‘it berish, parvarishlash, hosilni yig‘ib-terib olish jarayonlaridagi xarajatlarning qoplanishi, xomashyoning xarid miqdori kabi jihatlar bilan uzviy bog‘liq. Yana bir tomoni, klaster va fermerlar o‘rtasida hisob-kitob intizomida belgilangan huquqiy norma, shartnomalarga to‘la rioya etilishi zarur. Aks holda, dehqon kosasi yana oqarmay qolaveradi.

Xullas, klaster va fermer o‘rtasida paxta yetishtirish yuzasidan tuzilayotgan shartnoma har ikki tomon manfaatiga to‘la mos kelishi kerak. Negaki, fermer o‘z peshona teri bilan yetishtirgan hosilini o‘zi istagan narxda sota olmas ekan, qilgan xarajatlariga kuyib qolaveradi.

Masalan, 2023-yilda 20 ta klasterda hisob-kitob joyida bo‘lsa, 122 ta klasterning Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi oldida qarzdorligi bor, 27 ta klaster esa fermerlarga 2022-yil paxta hosilidan tegishli mablag‘larni to‘lab bermagan, 6 ta klasterning ishlab chiqarish quvvati yo‘q bo‘lsa-da, ularga imtiyozli kredit ajratilgan.

O‘tgan yil 23-noyabr kuni Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishda klasterlarni tashkil etish, ular bilan fermerlar o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha yangi tizim joriy qilinishi belgilandi. Endi yangi klasterlarga moliyaviy ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarish quvvatlari va texnika ta’minoti bo‘yicha talablar qo‘yiladi va ochiq tanlov orqali tanlanadi. Ular kamida ikki bosqichli qayta ishlashni yo‘lga qo‘ygan bo‘lishi shart.

Fermerlar bir viloyat ichidagi xohlagan klasteri bilan fyuchers shartnomasi tuzishi mumkin. Ular ushbu shartnomadan ortgan hosilni birja orqali sotishiga ham imkoniyat yaratiladi. Shuningdek, kelgusi yil hosili uchun paxta yetishtirishga 60 foiz bo‘nak ko‘rinishidagi imtiyozli kreditlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri fermerlarga ajratiladi. Klasterlar esa yetishtirilgan paxtani sotib olish va terim uchun mablag‘ berish orqali moliyalashtiriladi. Chuqur qayta ishlashga ham alohida mablag‘ ajratiladi. Mutasaddilarga klaster va fermer xo‘jaliklarini moliyalashtirishning yangi tartibini yo‘lga qo‘yish, ular o‘rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlikni hal etish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Oradan ko‘p o‘tmay, 2023-yil 12-dekabr kuni davlatimiz rahbari imzolagan “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonda yig‘ilishda ilgari surilgan yangi tartib-qoidalar huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

— Unga ko‘ra, 2024-yil hosilidan paxta yetishtiruvchi xo‘jalik va klasterlar o‘rtasida paxta yetkazib berish bo‘yicha fyuchers shartnomalari tuproq hosildorligi normativlari doirasida Respublika tovar-xomashyo birjasining paxta xomashyosi seksiyasida har bir hudud bo‘yicha alohida o‘tkaziladigan savdolar natijasiga ko‘ra tuzilishi belgilandi, — deydi qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor Odiljon Ibrohimov. — Shu bilan birga, 2024-yil hosilidan paxta yetishtirish, uning yig‘im-terimi va xaridini Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining kredit resurslari hisobidan moliyalashtirishning yangi tartibiga binoan, fyuchers shartnomasi tuzgan yetishtiruvchi va urug‘chilik subyektlariga har yili 1-oktabrdan, paxta yetishtirish uchun paxta qiymatining 60 foizigacha yillik 10 foizda 14 oyga, jumladan, 12 oylik imtiyozli davr bilan kredit ajratiladi.

Klasterlarga hosil xaridi bo‘yicha yakuniy hisob-kitob uchun paxta qiymatining 80 foizigacha yillik 10 foizda 10 oyga, jumladan, 6 oylik imtiyozli davr va oxirgi 4 oy davomida teng ulushlarda qaytarishlari, ijara huquqi mavjud bo‘lgan yer uchastkasida paxta yetishtirish uchun — hosil qiymatining 60 foizigacha yillik 10 foizda 24 oyga, jumladan, 18 oylik imtiyozli davr va oxirgi 6 oy davomida teng ulushlarda qoplashlari shart qilib qo‘yildi. Yig‘im-terim uchun paxta qiymatining 20 foizigacha yillik 10 foizda 12 oyga, jumladan, 3 oylik imtiyozli davr va oxirgi 9 oy davomida teng ulushlarda qaytarish sharti bilan kredit ajratilishi belgilandi. Fyuchers shartnomasiga asosan, yetishtiruvchilardan qabul qilingan paxta uchun to‘lovlarning 80 foizi paxta qabul qilib olingan kundan boshlab 3 ish kunidan kechiktirmasdan, qolgan qismi moliya yilining 31-dekabr kunigacha amalga oshiriladi.

— Farmonning yana bir muhim jihati, endilikda fermer o‘zi yetishtiradigan paxtani birjaga joylashtiradi va balandroq narx taklif etgan viloyat ichidagi klaster bilan fyuchers shartnomasini tuza oladi, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Barno Mirzamova. — Shartnomaning boshlang‘ich qiymati Nyu-York birjasidagi paxta tolasining oxirgi 12 oydagi o‘rtacha narxi asosida belgilanishi fermer uchun qulaylik tug‘diradi. Pirovardida fermer o‘zi yetishtirgan hosilni xaridorga arzon berib yubormaydi, balki birja ko‘targan narxda qimmatroq sotadi. Bu tizim bozor iqtisodiyotining paxtachilikda qo‘llaniladigan eng zamonaviy usuli sanaladi.

Yana bir e’tiborli tomoni, fyuchers shartnomasidan ortiqcha yetishtirilgan paxta xomashyosi yoki undan olinadigan birlamchi va ikkilamchi mahsulotlarni fermer xo‘jaliklari to‘g‘ridan-to‘g‘ri bitim tuzgan klasterga yoki birja orqali istalgan subyektga sotishi belgilangan. Bu ham juda to‘g‘ri va adolatli qaror. Chunki fermer oilasi, yaqinlari bilan ne mashaqqatlarda yetishtirgan hosildan baraka topishi kerak-ku?! Shartnoma o‘z yo‘liga, undan ortiqchasini istasa klasterga, istasa boshqa subyektga sotish erkinligi berilganining o‘zi fermer daromadini oshirishi tayin.

Agar fermer paxta xomashyosini o‘z mablag‘i, jumladan, tijorat kreditlari hisobidan yetishtirgan bo‘lsa-chi? Bunda paxta xomashyosi va undan olinadigan birlamchi hamda ikkilamchi mahsulotlarni birjada erkin sotadi. Bu tartib unga ham, xomashyoni sotib olayotgan xo‘jalik subyektiga ham daromad keltiradi.

Farmonda 2024-yil 1-maygacha joriy mavsumdan elektron tarozi orqali qabul qilingan paxta va undan ishlab chiqarilgan tolani avtomatlashgan majburiy hisobga olish tizimi joriy qilinishi, 2024-yil 1-yanvardan klasterlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tatbiq etilishi, nufuzli xalqaro auditorlik tashkilotlarini jalb qilgan holda, ular faoliyati samaradorligi va moliyaviy ko‘rsatkichlarini mustaqil tashqi auditdan o‘tkazish choralari ko‘rilishi ham belgilandi. Bu talablarning amalga oshirilishi ularning moliyaviy ahvolini haqqoniy baholaydi, saragini sarakka, puchagini puchakka chiqaradi.

Oz xarajat — soz manfaat

Prezidentimiz raisligida shu yil 12-fevral kuni qishloq xo‘jaligida ishga solinmagan yangi zaxiralarni safarbar etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yana fermerlar manfaatdorligi masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Bugungi kunda yangi tartib asosida, paxta xomashyosi birja orqali sotilayotgani, Nyu-York birjasida paxta narxi oshib borayotgani, g‘allachilikda ham bozor munosabatlari hisobiga fermerlarning daromadi 2 barobar ortgani qayd etildi.

— Agar dehqon va fermerni iqtisodiy manfaatdor qilsak, ular davlat mablag‘isiz ham ishlay oladigan vaqtlar keladi. Mening maqsadim shu, — dedi davlatimiz rahbari.

Manfaatdorlikni yanada oshirish uchun bu yil paxtachilikda bo‘lgani kabi g‘alla yetishtirishda ham imtiyozli kreditni to‘g‘ridan-to‘g‘ri fermerga berish tizimi joriy qilinadi. Bundan tashqari, davlat resursi uchun xarid qilingan bug‘doyni daladan tashib kelish va saqlash xarajati ham to‘liq budjet hisobidan qoplanadi.

Fermer xo‘jaliklari barqarorligida xarajat kamligi ham muhim. Shuning uchun mineral o‘g‘itlar tannarxini bu yil 15 foizga kamaytirish, ularni birjaga yetarlicha chiqarish, yana 70 ta tumanda o‘g‘it omborlari tashkil qilish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Bundan tashqari, mineral o‘g‘it sifati va ustamasi alohida nazoratga olinadi. Fermerlarga o‘z hisobidan o‘g‘it sotib olish bo‘yicha qulaylik yaratiladi. Joylardagi omborlardan mineral o‘g‘itni tashish uchun transportni logistika portalida majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi bekor qilinadi.

Sohada hisob-kitob intizomi tahlil etilar ekan, klasterlarning fermerlar oldidagi qarzdorligi hali to‘liq to‘lanmagani aytildi. Binobarin, endi yangi tizimga ko‘ra, oldingi qarzini 1-aprelgacha to‘liq to‘lamagan klaster bilan fyuchers shartnomasi bekor qilinadi va fermerga paxtani birjada sotishga ruxsat beriladi. Ma’lumotni elektron platformaga kiritgan va fyuchers shartnoma imzolagan fermerga kredit ko‘pi bilan uch kun ichida ajratilishi shart qilib qo‘yildi.

Kelajak shartnomasi

Aksariyat hollarda fyuchers shartnomalari tovarni uzil-kesil xarid qilish yoki sotish maqsadida emas, balki kelgusi yilga naqd tovarni g‘amlash yoki uni keyinchalik qayta sotish hisobidan foyda olish uchun tuziladi. Hali ishlab chiqarilmagan tovarning namunalari bo‘yicha oldi-sotdi bitimlarini ham fyuchers, deb atasak bo‘ladi. Erkin bozorda fyuchers to muddati kelguniga qadar birjada maklerlar tomonidan ko‘p marta qayta sotilishi va xarid qilinishi mumkin.

— Endi mahalliy fermer va klasterlar haqiqiy bozor munosabatlariga o‘tyapti, paxta xomashyosi uchun narxlar esa bozor tamoyillari natijasida faqat talab va taklif asosida shakllanyapti, — deydi “O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari Zulfiddin Kamolov. — Prezidentimizning 2021-yil 17-martdagi “Yuqori likvidli va monopol tovarlarni sotish jarayonlariga bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda 2021-yil 14-sentabrdagi “Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Tovar-xomashyo birjalarida fyuchers savdolarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan. Unda fyuchers savdolarini o‘tkazish, tovarlarning bozor narxi shakllanishini ta’minlash hamda tomonlar o‘rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi, mazkur savdolarda ishtirok etish bo‘yicha birja a’zolari va ularning treyderlariga qo‘yiladigan talablari belgilangan. Fyuchers shartnomalarini tuzish va ijrosi bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal etish yo‘llari ko‘rsatib berilgani holda, savdolar jarayonida narx manipulyatsiyasiga yo‘l qo‘ymaslikni nazarda tutadi. Bundan tashqari, fyuchers savdolari ishtirokchilari ustidan nazoratni amalga oshirish, qonunchilik hujjatlari talablari buzilgan holatlarda birja a’zolariga nisbatan choralar ko‘rish ham o‘rin olgan.

Ushbu moliyaviy vosita bir qator afzallik-larga ega. Birinchi navbatda, narxlar o‘zgarishini sug‘urtalash bo‘lib, bu, ayniqsa, fermerlar uchun qulay moliyaviy tayanch hisoblanadi. Ikkinchidan, tadbirkorlarga qo‘shimcha daromad sifatida ham past, ham yuqori narxlarda daromad keltiradi. Bu, o‘z navbatida, narxlarning barqarorlashuviga yordam beradi. Natijada ushbu bozor mexanizmi tufayli korxonalar o‘z faoliyatini samarali va aniq rejalashtirishi, ishlab chiqarishni kengaytirishi hamda yangi ish o‘rinlari yaratishi mumkin.

Aytish joizki, bozorda narxlarni barqaror ushlab turishning eng samarali usuli bozor vositalari va mexanizmlaridan foydalanishdir. Birja savdolari esa aynan ushbu vazifani o‘z zimmasiga oladi.

Shu nuqtayi nazardan, tovar-xomashyo birjasida savdolar shaffoflik tamoyili asosida o‘tkaziladi, narxlar faqat talab va taklif asosida shakllanadi. Shunga ko‘ra, 2022-yildan boshlab O‘zRTXBda savdolar fyuchers shartnomalari bo‘yicha tashkil etib kelinyapti. Bu esa tadbirkorlarning tovar resurslaridan erkin foydalanish imkoniyati kengayishiga, haqiqiy bozor narxlari shakllanishi va sog‘lom raqobat rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

O‘tgan yili mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan 1,6 million tonna bug‘doy birja savdolari orqali barcha tadbirkorlik subyektlariga erkin sotildi. Buning hisobiga mahalliy klaster, fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan qo‘shimcha 30,2 milliard so‘m daromad olindi.

Erishilgan ushbu ijobiy natijalar bozor mexanizmini qishloq xo‘jaligining boshqa sohalari, jumladan, paxtachilik tarmog‘ida ham joriy etish uchun ishonchli zamin yaratyapti.

— Prezidentimizning 2023-yil 12-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, paxta xomashyosi ilk bor Respublika tovar-xomashyo birjasining alohida seksiyasida fyuchers shartnomalari asosida sotilishi yo‘lga qo‘yildi, — deydi birja bosh makleri Islombek Ibrohimov. — Bu, o‘z navbatida, paxta xomashyosi narxi shaffoflik va bozor tamoyillari asosida shakllanishini ta’minladi. Mazkur bozorda raqobat muhiti rivojlanishiga ko‘mak berdi. Xususan, 2024-yil yanvar-fevral oylarida qariyb 28 mingta fermer xo‘jaligi tomonidan fyuchers shartnomasi asosida 1 million 703,3 ming tonna paxta xomashyosi birja savdolariga qo‘yildi va ulardan 1 million 700,5 ming tonnasi, ya’ni 99,8 foizi sotildi.

O‘tkazilgan birja savdolari natijasiga asosan, paxta xomashyosi o‘rtacha narxi mahsulotning bir tonnasi uchun 8 million 285 ming so‘mni tashkil qildi. Bunda paxta xomashyosining birjada shakllangan narxi auksion evaziga uning boshlang‘ich bahosi (7800,0 ming so‘mni)ga nisbatan o‘rtacha 6,2 foizga o‘sdi.

Fyuchers shartnomalaridan ortiq yetishtirilgan paxta xomashyosi 2024-yil noyabr oyidan boshlab birja savdolari orqali spot shartnomalari asosida sotiladi.

Yashil energetika

QUYOSH VA SHAMOL TUHFASI

Navoiy viloyatining Tomdi tumaniga yo‘lingiz tushsa, Qizilqum sahrosi kengliklarida shamol izmiga bo‘ysunib aylanayotgan ulkan parraklarga ko‘zingiz tushadi. Ushbu manzilga borar ekansiz, yo‘l-yo‘lakay Karmana tumanidagi yirik quyosh elektr stansiyasi ham e’tiboringizni tortishi aniq. Bu yirik loyihalar O‘zbekiston energetika tizimidagi islohotlarni ko‘z-ko‘z qilayotgandek, go‘yo.

Sir emas, bugungi kunda elektr energiyasiga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu jarayonni mutaxassislar turli omillar bilan bog‘lashadi. Aholi soni ortishi, amalga oshirilayotgan turli yangi loyihalar, tadbirkorlik rivojlanayotgani, yirik quvvatli yangi korxonalar ish boshlashi va ishlab chiqarish ko‘lamining kengayayotgani shular jumlasidan.

Elektr energetikasi iqtisodiyot rivoji, hayot sifatini ta’minlaydigan asosiy manba. Shu bois, sohada islohotlar muntazamligini ta’minlash, yangi loyihalarni ishga tushirish va shu orqali elektr energiyasi barqarorligiga erishish muhim vazifa hisoblanadi.

Ayniqsa, quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi O‘zbekiston energetika tizimida haqiqiy inqilob bo‘ldi, desak yanglishmaymiz. Ana shunday yirik loyihalarning 2 tasi aynan Navoiy viloyatida ishga tushirildi.

Yurtimizda yilning o‘rtacha 320 kuni quyoshli bo‘ladi. Mutaxassislar ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatimizda quyosh stansiyalarini qurish orqali 600 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Bu jami ehtiyojdan 8 barobar ko‘p qayta tiklanuvchi energiya manbai olish imkonini beradi.

Karmana tumanidagi qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida elektr energiyasini ishlab chiqaradigan quyosh elektr stansiyasi o‘rtacha 5 ta tumanning ehtiyojini qoplaydi. Stansiyada ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi yurtimizning barcha hududlarini o‘zaro bog‘lovchi yuqori kuchlanishli tarmoqqa ulangan.

Quyosh elektr stansiyasi yiliga 252 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi va 80 million kub metr tabiiy gazni tejash hamda atmosferaga 160 ming tonna issiqxona gazi chiqishining oldini oladi. Bu esa, tom ma’noda, O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishiga birinchi qadam bo‘ldi.

Kompleksni ishga tushirishda 110 million dollarlik sarmoya o‘zlashtirildi, 300 ming quyosh panellari o‘rnatildi va stansiyaning quvvati 100 megavattni tashkil etadi. “Nur Navoi Solar” deb nomlangan loyiha Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi.

2023-yilning 27-dekabr kuni Prezidentimiz Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida jami 2,4 gigavattlik quyosh va shamol elektr stansiyalarini foydalanishga topshirish va tarmoqqa ulash ishlariga start berdi. Ular orasida Tomdi tumanida qurilgan shamol elektr stansiyasi ham bor.

2019-yil mart oyida davlatimiz rahbarining Birlashgan Arab Amirliklariga rasmiy tashrifi doirasida “Abu Dhabi Future Energy Company PJSC — Masdar” kompaniyasi bilan mamlakatimizda umumiy quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini loyihalash, moliyalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish loyihasini birgalikda amalga oshirish bo‘yicha bitim imzolangan edi. Ushbu bitim asosida 2020-yil 22-dekabrda Prezidentimizning “Navoiy viloyatida quvvati 500 MBt bo‘lgan shamol elektr stansiyasini qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror ijrosi doirasida Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 293 gektar maydonda Markaziy Osiyodagi eng yirik shamol elektr stansiyasini qurish ishlari olib borilmoqda. Ta’kidlash joiz, ushbu hudud shamol elektr stansiyasi qurish uchun bejiz tanlanmagan. Sababi, bu yerda shamol tezligi soniyada 20-30 metrgacha yetadi. Bu esa tizimning barqaror ishlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yirik loyiha uchun “Masdar” va Xitoyning “Goldvind” kompaniyalari o‘rtasida 111 ta turbinani yetkazib berish bo‘yicha shartnoma imzolangan. Shu asosda shamol elektr stansiyasi uchun Xitoyning Lanjou shahridan turbina va generatorlar maxsus transport vositalari yordamida Navoiy viloyatiga olib kelindi. Ularning balandligi 97 metr, har bir parrakning uzunligi 77 metrni tashkil etadi.

— Bu hudud shamol stansiyasi faoliyati uchun juda qulay hisoblanadi. Aslida, vertikal o‘qli shamol generatorlari shamol tezligi 2,5 taqsim sekund bo‘lganda ham ishga tushadi. Bu yerda esa shamol tezligi 4 yarim taqsim sekundga teng. Birgina shamol turbinasining og‘irligi 25 tonna bo‘lib, 4,5 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega. Biz ushbu hududga mana shunday turbinalardan 111 dona o‘rnatamiz. Hozirgi kunda bu ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, — deydi xitoylik mutaxassis Li Chang Chen.

Ushbu shamol elektr stansiyasida 2023-yilning iyun oyida birinchi shamol turbinasi o‘rnatilgan bo‘lsa, hozir ularning soni 30 dan oshdi. Mazkur mega loyihaning umumiy qiymati 600 million dollar bo‘lib, 100 foiz xorijiy investitsiya hisobidan amalga oshirilmoqda. Shamol elektr stansiyasi qurilishining birinchi bosqichi 2023-yil oxirida tarmoqqa ulanishi rejalashtirilgan edi va belgilangan vaqtda amalga oshirildi.

Shamol elektr stansiyasi qisqa fursatda 31 million 181 ming 715 kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqardi. Buning natijasida 9,4 million kubometr gaz tejaldi va atmosferaga 13 ming tonna zararli gazlar chiqishining oldi olindi. Ma’lumot uchun, ushbu hajmdagi elektr energiyasi 155 ming 908 ta xonadonning bir oylik iste’moliga yetadi.

Ta’kidlash joiz, mazkur stansiyaning navbatdagi 200 MVt quvvati 2025-yilda to‘liq quvvatda ishga tushiriladi. Shamol elektr stansiyasining qurilishi davomida 800 tagacha va ishga tushgandan so‘ng 30 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda yangi energetika tizimini yaratish, bu borada yirik loyihalarni amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish, bu jarayonda tejamkor va qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishni rivojlantirish borasida belgilab berilgan vazifalar izchil amalga oshirilyapti.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Millat fidoyilari

YETIM BOLALAR MAKTABI *nega yopilgan?*

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING MA’RIFATPARVARLIK HARAKATI



Hamza milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining asoschilaridan. U buyuk ma’rifatparvarlar — Is’hoqxon Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Muhammadsharif So‘fizoda, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon qatorida salmoqli o‘ringa ega adibdir. Bu yil Hamza Hakimzoda Niyoziy tavalludiga 135 yil to‘ldi.

Azimjon DAVRONOV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

XX asrning 20-yillarida o‘zbek adabiyotshunosligi fani tarkibida hamzashunoslik degan ilmiy yo‘nalish paydo bo‘lgan. Ushbu yo‘nalish, o‘z navbatida, bir necha fan bo‘yicha yangi tarmoqlarni paydo qilgan. Ya’ni adibning ijodiy merosi va ijtimoiy-siyosiy faoliyati nafaqat adabiyotshunos, balki tilshunos, tarixshunos, pedagog, faylasuf, musiqashunos, san’atshunos (teatrshunos)lar tomonidan o‘rganilgan va o‘rganib kelinmoqda.

Hamza 1910-yilda Toshkentga keladi. Jadid maktablaridan biriga kirib o‘qiydi va muallimlik guvohnomasiga ega bo‘ladi. So‘ng Qashqar darvoza mahallasida “usuli savtiya” maktabini ochadi va muallimlik faoliyatini boshlaydi. 1911-yilda Qo‘qonga ketadi. Shaharning Hojibek guzarida yangi usuldagi maktab ochadi va bir yilcha faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, kambag‘al oilalarning bolalarini tekin o‘qitish uchun “Yordam jamiyati” tashkil etadi. Jamiyat yordamida katta yoshli kishilarni o‘qitish uchun 2-4 oylik kechki maktab ham ochadi. Bu haqda Hamza o‘zining tarjimayi holida quyidagilarni yozadi:

“1910-yilda Qashqar darvoza mahallasida birinchi marta usuli savtiya maktabi ochdim. Shu kundan muallimlikka kirishdim. 1911-yilda Ho‘qandda ochib, bir yil davom etgandan keyin, 50 so‘m aqcha to‘plab, Afg‘oniston, Hindiston, Makka, Madina, Shom, Bayrut bilan sayohat qilib, Istambulg‘a o‘qishg‘a kelgan bo‘lsam ham, o‘zim qochib borg‘an uchun, otam hamda bir rus qizidan uylang‘an oilam yuborgan ochulik xatlaridan qo‘rqub, qaytdim”.

1914-yilda Hamza chet el safaridan qaytadi va Qo‘qonning Bekvachcha mahallasida kambag‘al oilalar farzandlari uchun yangi usuldagi “Maktabi dor ul-aytom” (yetim bolalar maktabi)ni ochadi. Bu maktabning 1-sinf o‘quvchilari uchun “Yengil adabiyot”, 2-sinf o‘quvchilari uchun “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” darsliklarini yozadi. Ular o‘quvchilar yoshiga mos, sodda, tushunarli tilda yozilgan edi. Hamzaning mazkur darsliklarga kiritilgan she’rlari, qiziqarli masal va hikoyalari o‘zbek bolalar adabiyotini boshlab beradi. “Maktabi dor ul-aytom”ning faoliyati uzoqqa cho‘zilmaydi. Maktab ochilganiga endi 4 oy bo‘lganda shahar ichki ishlar bo‘limi tomonidan tintuv qilinadi.

Muassasa faoliyati bolalar uchun xavfli deb topiladi va yopib qo‘yiladi. Bu haqda shoirning o‘zi tarjimayi holida bunday yozadi: *“Marg‘ilondan yana Ho‘qand kelib, bir qancha o‘zimga yaqin kishilar to‘plab, ularning yordami bilan yo‘qsul bolalar uchun pulsiz o‘qutush maktabi ochdim. 20-30 kundan keyin 15-16 kishi bir oygina yordam berdi; o‘zim 4 oycha davom ettirgandan keyin uyaz nachalnigi (Medinskiy) tomonidan tintuv bo‘lub yopildi. Lekin hech bir qog‘ozlarim qo‘liga tushmag‘ani uchun qamalmay qutuldim. Hozirda ham shul iona varaqalar imzolar bilan saqlanadur”.*

Tinib-tinchimagan adib maktab faoliyatini saqlab qolishga qanchalik harakat qilmasin, baribir yopiladi. Shundan so‘ng aholi orasida majlislar chaqirib, “G‘ayrat” nomli kutubxona tashkil etadi. Bu haqda uning o‘zi tarjimayi holida yozadi:

“...Undan so‘ng kechki kurs davom ettirub yurub, 1915-yilda yana majlis chaqirib, kitobxona, qiroatxona kabi masalalarni hal qilib, “G‘ayrat” isminda kitobxona ochdirdim. Bundin maqsad bugungacha yozilg‘an asarlarimi ba’zilarin o‘z sarmoyam bilan bosdirg‘an bo‘lsam ham, ular maydaroq bo‘lub, boshqalarin shul kitobxona ismindin bosdirish edi. Lekin kitobxonamiz ochilg‘andan so‘ng 1910-yildan beri menim majlis va maktablarimg‘a butun kuchi bilan qarshi kelib turg‘an boyvachcha unsurlar kirib qolib, asarlarim uyonda tursin, o‘zimni ham surub chiqardilar. Hozirda materialim bilan birga biluvchi hayot kishilar hammalari deyarlik bordur. 1917-yilg‘acha asarlarimni bosdirish, asar yozish, gazetaga maqola yozish, loshmon voqealari haqida turli majlislar qilish bilan davom etdim”.

Hamza “Sadoi Farg‘ona” gazetasining 1914-yil 17-sentabr sonida “Maktabi dor ul-aytom” haqida maqola e’lon qiladi. Maqolada maktabning nomi, maqsadi va vazifalari haqida ma’lumot beradi. Maqolaning kirish qismida mana bunday fikrlar bor: *“Biz keldik masjid, yo madrasa, yo maktabxonalar masalasina. Mana, Misrda “Jome ul-azhor”, Istanbulda “Sulton Ahmad”, Shomda “Jomei Umaviya” yoxud maktablar, Qozonda “Muhammadiya”, Orenburgda “Husayniya” va alhosil har bir mamlakatda bo‘lg‘on har bir madrasa, masjid va maktabxonalarni o‘ziga maxsus bir ismlari vordirki, G‘arbda, Sharqda o‘lsun qo‘lig‘a gazeta tutgan kishilardan yuqoridagi maktab va madrasalarni ko‘rmag‘anlari bo‘lsa ham eshitmaganlari va unvonini bilmaydurganlari kamdir... Mana, bizda bularga qiyosan Bekbachcha mahallasidagi maktabimizni “Dor ul-aytom” unvoni bilan yurutmakni ijtihod etamiz. Demak, “Dor ul-aytom” o‘lmog‘iga bir oz sabab yozub o‘tmoqda lozim keldi”.*

Maqolaning mazmunidan anglash mumkinki, Hamza chet el safarida yurgan kezlarda Misr, Istanbul, Shom, Qozon va Orenburg shaharlarida chiroyli va mazmunli nomi, samarali o‘qitish tizimi bilan mashhur bo‘lgan maktablar faoliyati bilan yaqindan tanishgan. Hamza har bir maktab, u dunyoning qaysi davlatida bo‘lmasin, o‘zining o‘qitish tizimi, tarbiyalanib kamolga erishgan o‘quvchisi bilan mashhurlik maqomini ushlab turishini istagan. Ana shunday maktabni o‘z yurti — Qo‘qonda ham ochishni orzu qilgan. “Maktabi dor ul-aytom”ni ana shu orzu va maqsad yo‘lida ochgan desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Yetim va kambag‘al oilalar bolalarini savodli qilishga bel bog‘lagan Hamzaning mazkur maqolasini tahlil qilar ekanmiz, maktab ishini rivojlantirish maqsadida qilingan mana bunday mazmundagi targ‘ibotlarini o‘qiymiz: *“Dor ul-aytom”ga Ho‘qandning har tarafidan o‘lsin faqir bolalar shubhasiz qabul qilinadur. Faqat daftar, qalamdan boshqa kitoblarg‘acha hatto maktabdan beriladur... Toki shoyad har bir gazetani qo‘lig‘a olg‘an islom qardoshlarimiz islomiyatlari uyg‘onib, iona havasi va faqirlarning tarbiya orzusi ko‘ngillariga tushsa, xususan boyon va ahli davlatlarimizni(ng)”.*

Hamza ochgan maktabning boshqa jadid maktablaridan farqi kambag‘al va yetim bolalarga bepul ta’lim berilishi va o‘quv qurollari bilan ta’minlanishida edi. Adib shunday ezgu maqsadni ko‘zlagan va bu ishga o‘ttiz, qirq, ellik tiyin moddiy yordam bergan kishilarning ism-familiyasini gazetada e’lon qilib rag‘batlantirib borgan va bu rag‘bat orqali ularning sonini ko‘paytirish umidida bo‘lgan.

1914-yil dekabrida “Sadoi Farg‘ona” gazetasi muharriri Oxundiyning yordami bilan Hamza Marg‘ilonda maktab ochadi. Lekin bu maktab ham sakkiz oydan so‘ng Skobelev (Farg‘ona) maorif rahbari tomonidan yopiladi. Bu haqda shoir bunday yozadi: “1914-yilning oxirlarinda hozirgi “Farg‘ona” gazetasining muharriri o‘rtoq Oxundiyning g‘ayrati bilan Marg‘ilonda maktab ochdim. Sakkizinchi oyg‘acha bormay, Andreyev ismindag‘i Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi. Bunga sabab Marg‘ilonda avvaldin davom etib turgan maktab hamda tuzemniy rus maktabi muallimi Qudratilla qorining Andreyevga berib turgan axboridir...”. Hamza ochgan maktab faoliyati vatandoshlar ichidan chiqqan ayg‘oqchi tomonidan Andreyevga yetkazilgan va natijada maktab tugatilgan.

Shunday qilib, Hamza Toshkent, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida qayta-qayta maktab ochadi. Ular uchun sodda va tushunarli darsliklar yaratadi. Biroq maktablarning faoliyati har gal uzoqqa cho‘zilmaydi. Chor mustamlakasi maktab ishiga tish-tirnog‘i bilan qarshilik qiladi. Ma’rifatparvarlik faoliyatiga to‘siqlar qancha ko‘p bo‘lmasin, Hamza umrining oxirigacha millat ma’rifati yo‘lida kurashdan charchamadi. Uning har bir harakati millatni jaholatdan qutqarishga qaratilgan edi.

Xo‘sh, adib hayoti va ijodi yoki pedagogik risolalari, o‘qituvchilik faoliyati yangi davr uchun qanchalik dolzarb?

Hamza “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi 1-2-sinflar uchun yaratgan pedagogik risolalarida maktabga borish, kitob o‘qish, mukammal bilim olish, mustahkam e’tiqod egasi bo‘lish, go‘zal axloq-odob va ta’lim-tarbiyani targ‘ib qildi. Bugun kitob, gazeta, jurnal o‘qiydigan odamlar soni kamayib ketdi. Millatning madaniyati va ma’naviyatini yuksaltirish uchun kitoblarga qaytishimiz kerak. Mana, nima uchun jadidlar yaratgan g‘oyalar, asarlar dolzarb.

Adib “Maktabi dor ul-aytom” maqolasida maktabga munosib nom qo‘yish haqida fikr yuritgan. U ilgari surgan masalani bugun nafaqat maktab, boshqa tashkilot va muassasalar nomiga qiyos qilsak, izohga ehtiyoj qolmaydi.

Shunday qilib, Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zbek adabiyotshunosligi va pedagogikasi tarixida ma’rifatparvarlik harakatini boshlab bergan, ilk darsliklar muallifi, ilk maktab asoschisi sifatida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ shaxs edi.

Ta’lim odimlari

VATAN TARAQQIYOTI YETUK VA BILIMLI YOSHLAR QO‘LIDA

Sanobar SUYAROVA,
Jizzax viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i, Oliy Majlis Senati a’zosi

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda o‘quvchilarga xorijiy tillarni chuqur o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayni paytda viloyatda 1943 nafar chet tili fani o‘qituvchisi bo‘lib, ularning 904 nafari xalqaro til sertifikatiga ega. Joriy o‘quv yilidan har bir tuman va shaharda bittadan maktabda ikkinchi xorijiy til o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. To‘rt maktabda fransuz, olti maktabda nemis, ikki maktabda xitoy va bir maktabda koreys tili ikkinchi xorijiy til sifatida o‘rgatilmoqda. Shuning samarasida o‘tgan yili umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilarining 543 nafari xorijiy til sertifikatini qo‘lga kiritdi.

2023-2024-o‘quv yilidan boshlab ayrim umumta’lim maktablarimizda kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti joriy etildi. Ushbu maktablarda hududga mos kasblar va tadbirkorlik o‘rgatilmoqda. Bu bilan bitiruvchi yigit-qizlar mustaqil hayotga muayyan bir kasbni egallagan holda kirib kelayotir.

Ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuv va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishini inobatga olgan holda ta’lim berish hamda yuqori sinf o‘quvchilarining fanlarga ixtisoslashuvini kengaytirish, ularni oliy o‘quv yurtlariga yo‘naltirish uchun keng imkoniyat yaratish — davr talabi. 10 ta umumta’lim maktabida yuqori sinf o‘quvchilarini ularning qobiliyati va tanlovi asosida o‘qitish bilan bu maqsadga erishishni ko‘zda tutganmiz. Bundan tashqari, 25 ta umumta’lim maktabida ixtisoslashtirilgan maktablarning o‘qitish metodikasi va baholash tizimi joriy etildi. Ushbu maktablarga viloyatda mavjud 13 ta ixtisoslashtirilgan maktab biriktirilgan. Joriy o‘quv yilida “Zo‘r” (“Klass!”) loyihasi doirasida 5 nafar xorijlik mutaxassis umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga saboq bermoqda. Bu o‘quvchilarning xorijiy tillarni puxta o‘rganishiga, qiziqishi ortishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati ham takomillashtirilmoqda. Hozir viloyatda 1540 ta MTT mavjud bo‘lib, ularga 3-7 yoshli bolalarning 76,2 foizi qamrab olingan. Davlat MTTlari bilan birga 11 ta xususiy, 1216 ta oilaviy va 78 ta davlat-xususiy sheriklik asosida MTTlar faoliyat olib boryapti. Bu kelgusida bog‘cha yoshidagi bolalar qamrovini yanada oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbarligiga kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tizimi joriy etilgani ham ayni muddao bo‘ldi.

O‘z faoliyatini namunali tashkil etgan pedagoglar muntazam rag‘batlantirib borilmoqda. O‘tgan yili ilg‘or tajribali 112 pedagog mehnati e’tirof etilib, shunday rag‘batga munosib ko‘rildi. Ularning har biriga vazir jamg‘armasi hisobidan 9 oy davomida 5 million so‘mdan ustama to‘lab berildi.

Prezidentimiz yig‘ilishda oldimizga qo‘ygan vazifalarni amalga oshirish uchun bugundan ishga kirishmasak, ertaga kech bo‘lishini ta’kidladi. Shu bois, viloyat ta’lim tizimida kelgusida qilinadigan ishlar rejasi aniq belgilab olindi. 2024-yilda 37 ta ta’lim muassasasida qurilish-ta’mirlash va jihozlash ishlari olib boriladi. Buning natijasida viloyatda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 78 foizga yetkaziladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari menejerlik, o‘qituvchi va o‘quvchilar esa mahalliy hamda xalqaro ommaviy ochiq onlayn (“Yosh dasturchi” code.org), “Bir million dasturchi” kurslarida o‘qitiladi. 2024-yilda respublika mablag‘lari hisobidan 70 ta umumta’lim maktabiga 1190 ta, mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan 35 ta maktabga 595 dona zamonaviy kompyuter vositalari yetkazib berish belgilangan.

2024-2025-o‘quv yilida Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning o‘qitish va baholash tizimi joriy etilgan 25 ta maktabning har biriga 3 tadan ta’lim muassasasi biriktirilib, yangi tizim qamrovini kengaytirish choralari ko‘riladi. Maktabgacha va maktab ta’lim yo‘nalishida malaka oshirish tizimi muvofiqlashtirilib, o‘qituvchilar malakasini tabaqalashgan holda oshirish tizimi joriy etiladi. Pedagoglarga malaka toifasi berishning yangi tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida kamol toptirish — dolzarb vazifa. Vatanparvarlik esa oila va maktabdan shakllanadi. O‘quvchilar ongida ma’naviy immunitetni mustahkamlash maqsadida buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, harbiy vatanparvarlik hamda buyuk ajdodlar jasoratini targ‘ib etishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar muntazam o‘tkazib boriladi. Barcha davlat umumta’lim maktablarida “Vatan tayanchi” otryadi tashkil etiladi.

Bosqichma-bosqich va uzoqni ko‘zlab olib borilayotgan bunday ishlar ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bilan birga, Uchinchi Renessansga mustahkam poydevor yaratishga xizmat qilishi shubhasiz.

Zamonaviy kadrlar

O‘Z USTIDA ISHLASHDAN TO‘XTAMOQ MAG‘LUBLIKDIR

Buyuk Britaniyaning York universitetida davlat boshqaruvi yo‘nalishida ta’lim olganman. U yerdagi tahsil hayotimda katta o‘zgarish yasadi, desam adashmayman. Chet elda o‘qish ilmiy dunyoqarashimni kengaytirish bilan birga, zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalarni egallash hamda nazariy va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga zamin yaratdi.

Diyor UMAROV,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bo‘lim boshlig‘i

O‘qish davomida zamonaviy davlat boshqaruvi usullari, strategik rejalashtirish, xalqaro hamkorlik va xalqaro standartlarni o‘rgandim. Shuningdek, bir-biridan farq qiluvchi madaniyat va millat vakillari bilan tanishish, dunyoning turli burchaklaridan kelgan talabalar bilan muloqot qilish, ularni yangi O‘zbekistonda bo‘layotgan keng ko‘lamli islohotlar bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlatimiz tomonidan sarflanayotgan investitsiyani talaba sifatida tasavvur qilib o‘qishim menga bir necha barobar mas’uliyat yukladi.

Universitetdan tashqari hayotda ham faol bo‘lish xorijdagi ta’lim jarayonining bevosita ajratib bo‘lmaydigan qismi hisoblanadi. “El-yurt umidi” jamg‘armasi, O‘zbekistonning Buyuk Britaniyadagi elchixonasi hamda O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi tomonidan tashkil qilingan turli tadbirlarda faol ishtirok etish hamda O‘zbekiston imijini keng targ‘ib qilishga harakat qildim.

Bo‘sh vaqtlarda o‘zbek yoshlari uchun o‘z tajribamdan kelib chiqib, xorijda ta’lim olish, “El-yurt umidi” jamg‘armasi ochiq tanlovi hamda boshqa grant va stipendiyalardagi tanlov g‘olibi bo‘lish bo‘yicha seminar-treninglar tashkil qilib kelyapman. Shuningdek, “El-yurt umidi” jamg‘armasi bilan dunyoning nufuzli universitetlaridan biri — men tahsil olgan York universiteti o‘rtasida memorandum imzolanishiga hissa qo‘shdim.

Memorandum imzolanishi natijasida York universitetida ta’lim olgan jamg‘arma stipendiatlari uchun **to‘lov-kontrakt miqdoridan 25 foiz chegirma** belgilandi. Natijada budjet mablag‘larini iqtisod qilishga erishildi. Tahsil olayotgan vaqtimda universitetda ilk o‘zbek talabasi edim, keyingi yillarda talabalar soni bir necha barobar ko‘paydi.

Ayni paytda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida bo‘lim boshlig‘i lavozimida faoliyat olib boryapman.

Xorijdagi nufuzli oliy ta’lim muassasasida olgan zamonaviy bilim, ilg‘or tajriba hamda ko‘nikmalarimni oliy ta’lim tizimida qo‘llashga harakat qilyapman. Tizimni ilg‘or jahon tajribasi asosida takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro reytinglarda mahalliy oliy ta’lim muassasalarining o‘rnini yaxshilash, xorijiy talabalar hamda professor-o‘qituvchilarni jalb qilish kabi dolzarb yo‘nalishlarda muntazam takliflar ishlab chiqyapman. Bundan tashqari, ayni paytda iqtisod fani bo‘yicha ilmiy izlanish olib boryapman.

Mukammallikning chegarasi yo‘q, o‘zining ustida ishlashni to‘xtatgan inson mag‘lubiyatga uchraydi. Xorijiy tillarni yaxshi o‘rganish, ko‘proq kitob o‘qish, yangi va zamonaviy bilim olishga intilish hamda o‘z ustida yanada ko‘proq ishlash kishini yangi orzular, katta maqsadlar sari yetaklaydi. Bu maqsadlar yurt obodligi, el farovonligi yo‘lidagi intilish va izlanishlarga yo‘l ochadi.

Xotira uyg‘onsa go‘zal

Farg‘onaning Lolasi

O‘zbekiston Qahramoni, Oltiariq tumanidagi “Nurli obod” fermer xo‘jaligi rahbari Lola Murotova hayot bo‘lganida bu yil 66 bahorni qarshi olardi.

Xadichaxon KARIMOVA,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi

Umr deganlari shu ekan-da. Vaqti kelib, Lolaxon haqida xotira bitaman, deb yetti uxlab tushimga ham kirmagan. Taniganimdan buyon ona zamin bilan tillashib, dillashib, sirlashgan, qo‘riq bag‘rini rizq-ro‘z manbaiga aylantirish yo‘lidagi mashaqqatli mehnatda toblangan jismida alpqomat yigitlarning shiddati, g‘ayrati, ruhiyatida esa jur’ati, himmati bor edi-da o‘ziyam. Dehqonchasiga samimiy tabassum o‘ynagan chehrasi har qanday suhbatdoshni rom etardi. Kim bilan muloqotga kirishmasin, Lolaxon hammaning dilidagini topib gapira olardi. Uning donishmandona bu salohiyatiga barchamiz birday havas qilardik.

Farg‘onaning oq ro‘molli Lolasi. Halol va fidoyi mehnat, shu aziz Vatanga, onajon xalqimizga sadoqat, samimiyat va kamtarlik uni yuksak maqomlarga ko‘tardi: O‘zbekiston Qahramoni, senator, jamoat arbobi... sanab, adog‘iga yetib bo‘lmasdek. Mana shunday martabalarni hadya etgan mehnatga qulluq.

U borliqni uyg‘otguvchi ayni bahorning avvalida tavallud topgan. Shu kunlarda xotirasi hurmati, bosib o‘tgan hayot yo‘li kitobini varaqlashga jazm qildim. Uning qatlaridan Lolaxon xuddi hayot paytidagidek odamlar istiqboliga peshvoz chiqayotganday!

...Kechagi iliq havodan asar ham yo‘q. Erta bahorning izg‘igan shamoli bor bo‘lsin-da, hali barg yozib ulgurmagan tutlar, xiyol yashillikka o‘ralayotgan tollar ham cho‘lning chiyillagan ovozidan zada bo‘layotganday. Yam-yashil bug‘doyzorlar mavjlanayotgan ko‘ldagi qayiq misol to‘lg‘onadi. Yaydoq dalada yer tekislayotgan traktorning guldurosini shamol goh olislarga olib qochsa, goh shundoqqina oldingizga eltib tashlaydi. Paykal boshiga yetgan greyderchilarga nimanidir kuyinib uqtirayotgan ayolning qo‘l telefoni jiringladi chog‘i, uni qulog‘iga tutganicha traktordan olisladi.

— Yo‘q, hozir borolmayman, — deydi u bir oz tajang ohangda qat’iyat bilan. — Ishning ustida bo‘lmasam, ko‘nglim xotirjam tortmasligini bilasiz-ku. Yo‘qligimda arzimagan kamchilik chiqsa, marom buziladi. Ishlarni tugatib olay, keyin barcha topshiriqlarni bajarishga harakat qilaman.

Suhbat tugab-tugamay, yana kimdir yo‘qladi.

— Labbay, eshitaman. Ha, ha, urug‘likni olib kelib qo‘yganmiz. Eng maqbul muddatda ekib olish choralarini ko‘ryapmiz. Xudo xohlasa, hammasi yaxshi bo‘ladi.

Velosipedda shoshib kelgan yigit opaga uchraydi:

— Shiyponga o‘tarkansiz, fermer xo‘jaligiga qo‘shib berilgan yerlarning holatini ko‘rgani kelishibdi.

— Rahmat, ularni kutayotgan edim, — deya ariq hatlab, “Damas”iga o‘tirgancha yer tekislayotgan yigitlarga yuzlandi:

— Bo‘shashmanglar, bir yo‘la yonilg‘ini ham hal qilib kelaman. Ertadan ekishni boshlaymiz...

Ko‘z ilg‘amas kengliklarda hosilga kirayotgan bug‘doy bir yomg‘irdan so‘ng to‘q yashillikka burkanganida zang kasalligi hujum qilib qoldi. Lolaxonning har narsaga ko‘zyosh to‘kadigan odati yo‘q. Ammo bu yerda zahmatli mehnat qilgan erkaklarning ham ko‘ziga yosh qalqdi. “Nahotki, shuncha hosilni boy berdik”, deyishardi alam bilan.

— Hoy, yaxshilar, sizlarga nima bo‘ldi? Hozir obidiyda qilib o‘tiradigan vaqt emas. Bir lahzani ham boy bermay, zangga qarshi kurash boshlaymiz. Kechasi ham uyqu yo‘q, suspenziya sepamiz. Tushkunlikka tushmay, hamjihat bo‘lib ishlaymiz. Bu — elning rizqi, harakat qilsak, barakasini ko‘ramiz.

Uning gapi barchaga dalda bo‘ldi. Tinimsiz mehnatdan so‘ng zang chekindi. Gektarlab yer yashillikka burkandi, boshoqlar donga to‘ldi...

Bular nafaqat siz-u biz, balki tinib-tinchimas, o‘n erkakning o‘rnini bosgulik shashtu shijoatli, suratiyu siyratida dehqoncha vallomatlik manaman deb turgan yer farzandining kundalik hayotidan ba’zi lavha, xolos.

Favqulodda vaziyatlardan shunday qat’iyat va iroda bilan chiqib ketgan holatlar ko‘p bo‘lgan uning hayotida. Bo‘y-bastida ajib salobat, yuz-ko‘zida ona zaminning o‘zidek sokinlik aks etgan mushfiq ayolni uchratganda jismu jonida To‘maris matonatini tuygandek bo‘lardik...

U bolaligidan dalaga, texnikaga oshufta bo‘ldi. Boshqalarga o‘xshab qo‘g‘irchoq o‘ynamadi, durkun paytida ko‘zguga qarab, o‘ziga oro bermadi. O‘quvchilik davridan traktor boshqarishga, mototsikl haydashga ishqiboz bo‘ldi.

Urush ko‘rgan Ne’matjon aka avval traktorchi, keyinroq xo‘jalikda mexanik, injener bo‘lib ishlamaganmi, “o‘g‘ilbola” qizining texnikaga ishqibozligiga qarshilik qilmadi. Naima ayaning “Temirga ishqibozlik qiz bolaga xos emas-da. Kelayotgan sovchilarning oldida mototsikl tarillatadimi?” degan e’tiroziga javoban:

— Bu balki Yaratganning yuqtirganidir, qayerdan bilamiz, onasi. Qo‘yaver, har kim qiziqqan kasbiga erishsagina murodiga yetadi. Peshonasiga yozganini senu men o‘zgartira olmaymiz-da. Bundan ko‘ra, uni qo‘llab-quvvatlaganimiz yaxshi, dedi.

Shunday ham bo‘ldi. Gapiga hamisha ega chiqadigan, haqiqat yo‘lida hech narsadan tap tortmaydigan otaning sakkiz farzandi hammasi mehnatkash, ammo ikkinchisi xuddi o‘zidek mehnat-u mashaqqatning ko‘ziga tik boqadigan chiqdi.

Lolaxon maktabni bitirib, texnika bilim yurtida, keyinroq Toshkentdagi industriya texnikumida o‘qib, mexanik mutaxassisligini egalladi. Oltiariqdagi bilim yurtida yoshlarga traktorchilik kasbi ko‘nikmasini berib yurgan paytda jamoa xo‘jaligiga traktorchilikka ishga taklif qilishdi.

— O‘shanda bo‘lim boshqaruvchisiga avval traktorni ko‘rishim kerakligini aytdim, — deya xotirlagandi Lolaxon. — Ko‘rdik. Texnika ancha nosoz edi. Takliflarimni aytdim. Dadam bo‘limda mexanik bo‘lib ishlardi. Kechqurun uyga qaytgach, men aytgan traktorni sozlab qo‘yganini, ertadan ish boshlayverishim mumkinligini, o‘zi nazorat qilib turishini aytdi...

O‘sha damlardan keyin Farg‘onaning Lolasi ne-ne sinoat-u mashaqqatga duch kelmadi. Ammo hech qachon “voh” demadi. Chunki bunday deyish uning tabiatiga yot edi. Ishlayman, deganga qishloq xo‘jaligida bekorchi kunning o‘zi yo‘q. Ayol boshi bilan yer o‘zlashtirish, tekislash, chigit ekish, qator oralariga ishlov berish, mashinada paxta terish, kombayn boshqarish, pichan yanchish bilan bog‘liq barcha ishni uddaladi.

Donishmand xalqimizning “yuk ko‘targan yuzaga chiqadi” degan hikmati bejiz emasda. Yosh Lolaning shijoati, uddaburonligi tez orada el og‘izga tushdi. Odamlarning talabi bilan avval brigadirlikka, keyin esa bo‘lim boshqaruvchiligiga tavsiya qilindi. U bu mas’uliyatni ham qoyilmaqom qilib ado etdi.

O‘sha kezlarda chakalakzor bo‘lib yotgan qarovsiz yerni ekin maydoniga qo‘shishga alohida e’tibor berilgandi. Bu yumushning uddasidan chiqishga manaman deganlarning ham yuragi dov bermasdi, ammo Lolaxon jazm etdi. Uchmaqumlarni surib, o‘rniga unumdor tuproq yotqizish maqsadida o‘zi buldozer boshqardi. Echkiemarlar, polvon yigitlarning bilagiday keladigan ilonlar manzil topgan ovloq yerlarni o‘zlashtirish uchun o‘zida kuch topdi, boshqalarni ham shunga ruhlantirdi. Lolaxonning shashtiga qoyil qolgan o‘sha davrdagi rahbarlari uni har jihatdan qo‘llab-quvvatladi. Cho‘l yerga suv olib kelish borasidagi taklifiga ko‘ra, “Lolanasos” nomli yangi inshoot qurilib, ishga tushirildi. Shamol yo‘lini to‘sish uchun ihota o‘simliklar ekildi.

Bunday kezlarda Lolaxon haftalab etik yechmadi. Ayol bo‘lib oynaga bir boqishni ham unutdi. Hech qachon nolimadi, ortidan ergashayotgan, unga ishonayotgan va suyanayotgan odamlarni maqsad sari yetaklay bildi. Chinakam dehqon uchun yerga hayot baxsh etishdan ham sharafliroq ish bormi?!

“Paxta ishi”, “o‘zbek ishi” nomi bilan ataluvchi zug‘umning achchiq izg‘irini Lolaxonning qalbini ham bir muzlatib o‘tgan. O‘shanda Moskovdan kelgan tergovchi “Paxtakor” sovxozi direktori Habibullo Yusupov bo‘yniga suv nasos stansiyasini qurib berish uchun Lola Murotovadan pora olganlik aybini qo‘yishga urindi, biroq haq gapni aytishdan toymagan yigirma sakkiz yoshli qizning qo‘rqmasligidan cho‘chidi chog‘i, niyatiga yetolmadi. Axir o‘sha davrda qiynoq ostida soxta guvohlik berganlar tufayli qanchadan-qancha aybsiz aybdorlar panjara ortiga ravona bo‘lmaganmi?!

Zuvalasiga shijoat qo‘shib qorilgan, fidoyi mehnatning qozonida qaynagan, iqtisodiy-siyosiy bilimi, so‘zamolligi o‘ziga yetarli Lolaxonga ishonadiganlar qancha bo‘lsa, suyanadiganlar ham kam emasdi. Bu orada u deputatlikka saylandi. Shirkatlar tashkil etilganda endi mingga yaqin a’zosi bor xo‘jalik a’zolari o‘zlariga yetakchilikka Lolaxonni tanlab, adashmaganlari g‘alvir suvdan ko‘tarilganda namoyon bo‘lgandi.

O‘shanda Markaziy Farg‘ona qo‘riqlaridagi har bir qarichi o‘ziga tanish bo‘lgan 700 gektar g‘allazordan 47 sentnerdan don, 710 gektar maydonning har gektaridan esa 33 sentnerdan paxta hosili olishgandi (bu 2005-yilda qo‘riq sharoiti uchun eng yuqori natija bo‘lgan).

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar taqozosi bilan boshlangan fermerlik harakatiga Lolaxon birinchilar qatori qo‘shildi. “Nihoyat, bizda ham yer haqiqiy egasiga topshirilar ekan-da”, dedi u o‘shanda.

— Ota-bobolarimiz bir kaftgina yerga egalik qilolmay armon bilan o‘tib ketishdi, — degandi Lolaxon daladagi uchrashuvlarimizdan birida. — Mana shu dalalarning bari bugun fermerlar ixtiyorida. Yerining taomilini bilgan, dardiga darmon izlaydigan dehqonni hech qachon quruq qoldirmaydi, aldamaydi. Adolatparvarlikni aslida ona zamindan o‘rganishimiz kerak, berganga beradi, yer ham tirik jon axir.

Uning aytishicha, mineral o‘g‘itlardan palapartish foydalanish oqibatida tuproq tarkibida nitrat kimyoviy moddasi ko‘payib ketgani hosildorlikka jiddiy zarar yetkazdi, paxtaning pishishini kechiktirib yubordi, hosildorlik kamaydi. Dekabrgacha ham tuplarda ochilmagan ko‘saklar qolib ketdi. Lolaxon esa ekinlar parvarishida mahalliy o‘g‘itga zo‘r berdi. Hozir ham izdoshlari bunga amal qiladi. G‘alladan bo‘shagan kam hosilli maydonlarga suli urug‘i sepib, aprelning boshlarigacha o‘stirib, so‘ng haydab, tuproqqa aralashtirib yuborishadi. Bu ko‘k massa yerga yaxshigina ozuqa bo‘lish bilan birga, chigit unib chiqquncha namlikni saqlab, niholning baravj rivojlanishini ta’minlar ekan. Yangilikka intilish, izlanish ortidan erishilgan tajriba bugun ham qo‘llab kelinyapti.

Ayni g‘alla o‘rim-yig‘imi paytida el rizqidan marjon taqqan tillarang bug‘doyzor boshida qilgan suhbatimiz chog‘ida Lolaxonning aytgan gaplari ko‘nglim kitobiga muhrlanib, har varaqlaganimda, hayratimni oshiraveradi:

— Ba’zan mehnatga berilib, turmush qurishni ham unutdingiz, deb qolishadi, — degandi qo‘lidagi boshoqqa boqib. — Taqdirim shunday kechganidan nolimayman. Mehnatning ortidan kam bo‘lmadim. Meni elga qo‘shgan ota-onamdan qanchalar qarzdor va minnatdor bo‘lsam, farzandidek tutib, bag‘rimni to‘ldirgan opam, hamisha yonimda bo‘lgan hamkasblarim, yelkadoshlarimdan bir jihatdan qarzdor va minnatdorman. Meni Lola Murotova qilib, yurtga tanitgan shu mehnatkash, to‘pori, soddadil, yer ochib, urug‘ sochib, hosil olib suyunganimda suyungan suyanchiqlarim shular. Yoshi ulug‘larini ota-onamdek, qolganlarini jigarlarimdek yaxshi ko‘raman. Yolg‘iz otning changi chiqarmidi?! Ko‘ksimdagi nishonlarim ularniki ham. Yelkadoshlarimning qay birini aytay?! Ularning barchasini tilga olgim keladi. Milliarder fermer darajasiga shular tufayli erishdik-da. Ularning 17 farzandiga uyimga aylanib qolgan dala shiyponimizda to‘y qilib berganimda ko‘ngillari qanchalar ko‘tarilganini ko‘rib, o‘zimning ham umrimga umr qo‘shildi-da. Odamlarning ko‘nglini olmoq, rozi qilmoqdan ham ulug‘roq savob bor ekanmi!..

Lolaxonning jamoasi milliarderlar xo‘jaligiga aylanishida ularning mehnati katta. Axir 426 gektar maydonda dehqonchilik qilish, yaxshi daromad olib, birini ikki qilishning o‘zi bo‘larkanmi?!

Respublika ayollarining katta anjumanida ishtirok etayotgan farg‘onaliklar oldiga kelgan ushoqqina ayol “Men qashqadaryolikman, imkoni bo‘lsa, Lola opamning duosini olsam, bizga ham u kishining yo‘lini bersin”, degandi. O‘shanda Lolaxon tabiatiga monand samimiyat bilan ko‘zi pirpirab turgan yosh fermerni bag‘riga bosib, unga oq yo‘l tilab, duo qilgandi.

Ko‘ngli ham oq ro‘moliday oppoq ayolning mehnati davlat miqyosida e’tirof etilganlar orasidan ham ko‘zga yaqqol tashlanib turardi. Qaddi-basti o‘ziga yarashgan, vazmin, dehqonchilikning chinakam bilimdoni, chertib-chertib, har bir so‘zni xuddi voizlardek o‘rniga qo‘yib so‘zlaydigan Farg‘onaning Lolasi edi! O‘sha pallada ko‘nglidan nimalar kechgan ekan-a?

Ufqi keng, mehnat-u mashaqqati ortidan xazinalar sandig‘iga aylangan, bir kun ko‘rmasa sog‘inadigan dalasini, chor atrofi gulu chamanlarga burkangan, Markaziy Farg‘ona cho‘llarining qoq markazida el-yurt ishqida beorom kunlari-yu bedor tunlariga guvoh bo‘lgan, katta-kichik mehmonlar, hatto xorijlik sayyohlarni kutgan, bir piyola choy tutgan qutlug‘ maskani — muhtasham shiypon hanuz uni yodga soladi. Yuragining har zarbida Vatan ishqi gupillab urib turgan oq ro‘molli Farg‘onaning Lolasi siymosida o‘zbekning, O‘zbekistonning fidoyi dehqon qizi timsoli hamisha ko‘rk-salobat berib turgandek bo‘laveradi...

Farg‘onaning oq ro‘molli Lolasi. Halol va fidoyi mehnat, shu aziz Vatanga, onajon xalqimizga sadoqat, samimiyat va kamtarlik uni yuksak maqomlarga ko‘tardi: O‘zbekiston Qahramoni, senator, jamoat arbobi... sanab, adog‘iga yetib bo‘lmasdek. Mana shunday martabalarni hadya etgan mehnatga qulluq.

Lolaxon maktabni bitirib, texnika bilim yurtida, keyinroq Toshkentdagi industriya texnikumida o‘qib, mexanik mutaxassisligini egalladi. Oltiariqdagi bilim yurtida yoshlarga traktorchilik kasbi ko‘nikmasini berib yurgan paytda jamoa xo‘jaligiga traktorchilikka ishga taklif qilishdi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 784.
44899 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 01:35 Topshirildi — 02:15

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05